

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI

TURKIY TILLAR KAFEDRASI

**“O‘TKAN KUNLAR” ROMANI TURK TILIDA TARJIMA
MAHORATI MASALASI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Annotatsiya: Ushbu bituruv-malakaviy ishida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining turk tiliga qilingan tarjimasi o‘rganib chiqilgan, asar tarjimasi tahlil qilingan. Tabiat tasvirining tarjimadagi in’ikosi, portret tasviri, milliy xarakterning berilishi ,so‘z tanlash masalasi tahlil ostiga olingan. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iboratdir.

5220100 – Filologiya va tillarni o‘qitish

(turk tili va adabiyoti) ta’lim yo‘nalishi

Bajardi: turk-nemis guruhi talabasi

Muminova Nilufar

Ilmiy rahbar: fil.fan.nom.dots.

Jumali Shabanov

Toshkent-2014

Mundarija

Kirish.....	3
I Bob. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining turkcha tarjimasi va unda tarjimon mahoratining aks etishi	
1.1. “O‘tkan kunlar” romanida aks etgan tabiat tasvirining tarjimadagi in’ikosi.....	11
1.2. “O‘tkan kunlar” romanining turkcha tarjimasida portret tasviri va unda aks etgan milliy xarakterning berilishi	19
II Bob. “O‘tkan kunlar” romanida yozuvchi uslubining tarjimada berilishi	
2.1. Tarjimon mahoratining maqol va iboralarning o‘g‘irishda namoyon bo‘lishi.....	31
2.2. Asarda aks ettirilgan milliy o‘ziga xoslik va tarixiy davrni qayta yaratishda tarjimon mahorati.....	44
Xulosa.....	53
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	56

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lum bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilingan asarlar necha yuz yillardan buyon xalqlarning milliy madaniyati, an'analari, urf-odatları, dunyoqarashi, hayotni anglash falsafasi, tafakkuri, qolaversa, yashash tarzi haqida tasavvur hosil qilishda nihoyatda muhim o'rin egallab kelgan. Axborot almashinuvi rivojlangan, globallashtirish jarayonlari hayotimizga shiddat bilan kirib borayotgan bugungi kunda milliy adabiyotlarni saqlash, ma'naviy qadriyatlarni e'zozlash va kelgusi avlodlarga yetkazish, shuningdek, bu orqali xalqaro aloqalarni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Muhtaram Yurtboshimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek: "Uzoq yillar davomida o'zbek adabiyotini to'g'ridan-to'g'ri ona tilimizdan tarjima qilib kelgan chet ellik tarjimonlar bilan birga, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan iste'dodli o'g'il-qizlarimizni mana shu mashaqqatli, ayni paytda oliyjanob ishga jalb etish, bu masalaning yechimi bilan bevosita bog'liq bo'lgan tashkiliy-amaliy vazifalarni hal qilishimiz maqsadga muvofiq bo'lur edi"¹

Hurmatli Prezidentimiz ushbu qimmatli fikrlarida tarjima masalalarining dolzarbligi va mashaqqatli jarayon ekanligini ta'kidlash bilan bir qatorda, o'zbek tilidan boshqa chet tiliga yoki chet tilidan o'zbek tiliga qilinadigan tarjimalarni usta tarjimonlar bilan bir qatorda, til o'rganayotgan biz yoshlarni ham jalb etishga undayotganlari ko'rinib turibdi.

Xalqlarning ma'naviy darajasini ko'tarishda adabiyot muhim vosita ekanligi yaxshi ma'lum. Adabiyotning yuksalishida esa, adabiy aloqalarning o'rni muhim. Badiiy tarjima juda qadimdan har bir adabiyotning rivojlanishida va shu orqali xalqlarni o'zaro tanituvda ulkan omil bo'lib kelmoqda.

O'zbek milliy merosi, dunyo mamlakatlari orasida obro'-e'tibori yil sayin ortib borayotgan ona-yurtimiz, xalqimizning hayot tarzi, urf-odatları, badiiy

¹ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 139-b

tafakkurini adabiyot, xususan, badiiy tarjima yo‘li bilan keng yoyish, targ‘ib qilish bugungi kunning eng dolzarb, kechiktirib bo‘lmas vazifalaridandir.

Shuni ta’kidlash joizki, shu paytgacha sharqshunoslarimiz tomonidan arab, yapon, turk, koreys, fors, hind tillaridan noyob badiiy asarlar o‘zbek tiliga o‘girilib, kitobxonlarga taqdim etilgan va bunday faoliyatlar davom ettirilmoqda. Lekin o‘zbek adabiyotining durdona asarlarini sharq tillariga tarjima qilishda ham ancha ish qilmog‘imiz darkor. Jumladan, XX asrning 2- yarmida, xususan, Mustaqillik yillarida yaratilgan o‘zbek adabiyoti durdonalari orasidan tanlab olingan asarlarning sanab o‘tilgan xorijiy sharq tillariga tarjima qilinib, nashr etilishi va bu borada hamkorlik faoliyatlarini kuchaytirish, keng jamoatchilik, ijodkorlar, chet el vakolatxonalarining vakillari ishtirokida tarjima asarlari taqdimotlari o‘tkazilib, ommaviy-axborot vositalari yordamida keng xalq ommasiga ma’lum qilinishi soha oldida turgan yanada muhim vazifa hisoblanadi. Shunda biz Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning “Holbuki, biz ma’naviyatimizni yuksaltirish yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga intilayotgan ekanmiz hech qachon o‘z qobig‘imizga o‘ralib qolmasligimiz kerak.

Qisqacha aytganda, boshqa sohalar qatori adabiyot sohasida ham xalqaro aloqalarni kuchaytirish zarur. Qaysi millatda bizning adabiyotimiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashadi, xorijdan biz nimalarni o‘rganishimiz mumkin va o‘z navbatida, ularga nimalarni taqdim etishimiz mumkin – bugun bu masalalar xalqaro maydonda o‘zligimizni namoyon etishda katta ahamiyatga ega ekanini yodda tutishimiz lozim. Men bu borada G‘arb bilan birga Sharq mamlakatlari, jumladan, Yaponiya, Janubiy Koreya bilan, Misr, Birlashgan Arab Amirliklari, Quvayt kabi arab davlatlari bilan aloqalarni kuchaytirishni tavsiya etgan bo‘lardim”²- degan so‘zlariga mos harakat qilsak, to‘g‘ri ish tutgan bo‘lamiz.

Badiiy tarjima tufayli har bir xalq ikkinchi xalqni teranroq tushunadi, uning ezgulik, adolat, yaxshilik ideallari o‘zga xalqlar dilidan joy oladi va pirovardida bu g‘oyalar insoniyatni harakatga keltiruvchi kuchga aylanadi. Muayyan milliy

² Karimov I.A. “Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor”. – T.: O‘zbekiston, 2009. 32-b.

muhitda yuzaga kelgan u yoki bu muammolar va xususiyatlarni aks ettiradigan milliy badiiy asar ana shu jihati bilan baynalmilal, umuminsoniy xarakter kasb etadi. Shuning uchun ham badiiy tarjimaning o'рни va roli jahon adabiyotshunosligida yuksak baholangan³.

Tarjimashunos olim G'aybullar Salomov: "Badiiy asarlar tarjimasining xususiyati shundaki, u chinakam nafis narsadan bahramand etishdan tashqari, xususan, estetik tuyg'uni o'stirishga, did paydo qilishga va nafis narsa to'g'risida haqqoniy tushuncha tarqalishiga xizmat qiladi"⁴ deb yozgan edi. Turk tarjimashunosi Mina Yaziji bo'lsa: "Iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va badiiy adabiyot sohasida ma'lumot almashinish nihoyatda taraqqiy etgan bir davrda tarjimaning xalqaro munosabatlardagi roli beqiyosdir"⁵, deb ta'kidlaydi. O'z navbatida, o'zbek olimi Najmiddin Komilov, tarjima asari – bu boshqa xalq yaratgan narsadan aynan ko'chirilgan nusxa emasligi, balki "tarjima boshqa tildagi badiiy go'zallikni o'z xalqi uchun ijodiy o'zlashtirish, yangi tilning quvvati va qudratini namoyish etib, asarni shu tilning san'at hodisasiga aylantirish"⁶ deya qayd qiladi.

Tillar va tarjimalar bahsida turkiyzabon xalqlarning o'zaro ilmiy hamda madaniy ayirboshlash, boyish va boyitish jarayonini tadqiq qilish benihoyat muhim ish. Bu jihatdan istiqlol yillarida badiiy tarjima ishi jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritdi. Ayniqsa, qardosh xalqlar, xususan, turk adabiyotidan o'zbek tiliga, o'zbek adabiyotidan turk tiliga tarjima qilish adabiy jarayonning faol bir yo'nalishiga aylandi. Abdulla Qodiriy, Oybek, Odil Yoqubov, Shukrullo, Pirimqul Qodirov, Xudoyberdi To'xtaboyev singari iste'dodli o'zbek adiblarining asarlari qisqa vaqt ichida turk tiliga o'girilib, nashr qilindi va bu ijod namunalari turk kitobxonlari tomonidan iliq kutib olindi.⁷

³ Ibrohimova Sh. "Odil Yoqubov romanlaridagi milliylikning turkcha tarjimalarda aks etishi. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2010, 3-b.

⁴ Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima.-T.: Fan, 1980.-11-b.

⁵ Yazıcı Mine. Çeviribilme Giriş. – İstanbul yayınları, 2001. S-9

⁶ Komilov N. Bu qadimiy san'at. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998. 5-b.

⁷ Ibrohimova Sh. "Odil Yoqubov romanlaridagi milliylikning turkcha tarjimalarda aks etishi. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2010, 4-b.

Aytib o'tish joizki, bugungi kunda o'zbek adabiyoti durdona asarlarining turk tiliga tarjimasi, shuningdek, turk adabiyoti mashhur asarlarining o'zbek tiliga tarjimasi turk va o'zbek kitobxonlari va mamlakatimizda turk tilini sharq tili sifatida o'rganayotgan talabalar uchun har bir millatning o'ziga xos bo'lgan milliy qadriyatlari, urf-odatlar, dunyoqarashi, yashash tarzi haqida chuqur tasavvur hosil bo'lishida nihoyatda muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi vaqtgacha turk adabiyotiga mansub bir qancha asarlar o'zbek tiliga tarjima qilingan. Masalan, taniqli turk yozuvchisi Rashod Nuri Guntekinning "Choliqushi", "Yaproqlar to'kilishi", "Xotin dushman", "Otash kechasi", "Muhabbat simfoniyasi" kabi asarlari, Ahmad Lutfi Qozonchining "O'gay ona" mashhur turk hikoyanavisi Umar Sayfiddinning "Badal" nomli hikoyalar to'plami, Yovuz Bahodiro'g'lining "Xorazm o't ichida", Suot Darveshning "Fosforli Javriya" Husayn Nihol Otsizning "Ko'k bo'rilarning o'limi", "Ko'kbo'rilarning tirilishi" va boshqa bir qancha asarlar o'zbek kitobxonlariga taqdim etildi. Xuddi shuningdek, o'zbek adiblaridan Said Ahmadning XX asrning 50-yillarida yozgan "Mehribon" ("Üvey Anne"), "Ko'klam chechaklari" ("Kardelen"), "Surat" ("Fotoğraf") nomli, 90-yillarda yozgan "Qorako'z Majnun" ("Karagöz Mecnun") nomli hikoyalari, "Ko'klam taronalari" ("İlkbahar Senfonisi") nomli nasriy dostoni, taniqli adib O'lmas Umarbekovning "Abdulla Qovunchi" ("Abdulla Kavuncu") va "Ko'klam nafasi" ("Bahar Nefesi") hikoyalari, O'tkir Hoshimovning hayoti va 50 yildan ortiq muddatni o'z ichiga olgan adiblik faoliyati sirasida boshdan kechirganlari, orzu va armonlari to'la esdaliklarini o'z ichiga olgan, ijodkorning katta hayot tajribasi natijasi desa arzigulik, o'zbek xalqining eng sevgan asari "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" ("Derkenar yazıları") va "Dunyoning ishlari" ("Dünyanın İşleri") va yillar davomida, ta'bir joiz bo'lsa, biri "kitobxon", biri esa "vaqt" deya nom olgan, eng xolis va eng "beshafqat" ikki hakam sinovidan o'ta olgan, hayotning achchiq haqiqatlari va inson taqdiri aks etgan "Oq bulut, oppoq bulut" nomli asarlaridan tanlab olingan hikoyalarning turk tiliga qilingan tarjimasi mamlakatimizda turk

tiliga yosh o'zbek ijodkorlari tomonidan amalga oshirilgan ilk muvaffaqiyatli tarjima asari qimmatiga ega.⁸

O'zbek nasrini tarjima qilib, nashr ettirishda esa turkiyalik tarjimon Ahsan Baturning hissasi katta. Ahsan Batur 1992-1996 yillar davomida o'zbek nasrining go'zal namunalaridan bir nechtasini – A.Qodiriyning “O'tkan kunlar”, O.Yoqubovning “Ulug'bek xazinasi”, “Ko'hna dunyo”, “Adolat manzili”, Shukrulloning “Kafansiz ko'milganlar”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanlarini tarjima qilib (bu ishlari uchun tarjimon 1994-yilda respublikamizning Alisher Navoiy mukofoti bilan taqdirlandi) Turkiyada nashr ettirdi. Keyinchalik Oybekning “Navoiy”, O.Yoqubovning “Muqaddas”, X.To'xtaboyevning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o'limi”, N.Qobulning “Unutilgan sohillar” asarlarini turkchada chop ettirdi.⁹

XX asr o'zbek adabiyotining yorqin yulduzi, o'zbek romanchiligi maktabining asoschisi Abdulla Qodiriyning adabiy merosi nafaqat qardosh xalqlar, balki dunyo kitobxonlarining ham e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Adibning “O'tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari o'zbek nasrining gultoji hisoblanadi.¹⁰

Xususan “O'tkan kunlar” romanining shuhrat topishida qardosh xalqlar tarjimonlarining mashaqqatli mehnati ham yotadi. Yozuvchi Tohir Malikning fikricha, bir asarni dunyo tanimog'i faqat darajaga bog'liq emas, balki bu o'rinda qoyilmaqom tarjima ham muhimdir.¹¹ Albatta, har bir satrida milliylik va tarixiylik ufurib turgan asarni tarjima qilish mutarjim oldiga murakkab vazifalarni qo'yadi. Birinchidan, tarjimon tarixiy asarga asos qilib olingan o'tmish davr bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak, ikkinchidan, asardagi milliy ruhni chuqur mushohada qila olishi darkor, o'zbekona lutf va urf-odatlarini puxta bilishi lozim, uchinchidan,

⁸ Shabanov I. “O'zbek adabiyoti namunalari turk tilida”- Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi (Ilmiy maqolalar to'plami). Toshkent – 2013. 34-b.

⁹ Ibrohimova Sh. “Odil Yoqubov romanlaridagi milliylikning turkcha tarjimalarda aks etishi. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2010, 4-b.

¹⁰ I.A. Karimov, Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-jild. T.: O'zbekiston, 1996.

¹¹ T. Malik. Tanlangan asarlar. 5-jid. T., 2007.

asliyat tilini bilmaydigan tarjimonlar mutaxassislar tomonidan mukammal tarzda sharh va izohlar bilan tayyorlangan taglamalar bilan ta'minlanishi zarur, to'rtinchidan, asliyat adabiyotining bilimdoni yoki mazkur adabiyot an'alaridan boxabar bo'lishi talab etiladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuni e'tirof etish lozimki, qabul qiluvchi muhitning ham imkoniyatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bu holat, ayniqsa, qardosh bo'lmagan, tillarga taalluqlidir. Buyuk rus adibi F.M. Dostoyevskiy ta'biri bilan aytganda, badiiy tarjimada bir so'z ortiqcha ham, kam ham bo'lmashligi kerak.¹² Biroq bunga doimo ham erishish qiyin, nafaqat nazmiy tarjimada, hatto nasriy tarjimada ham buning imkoniyati oz.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek tarjimashunosligida badiiy tarjimaning turli jihatlarini J.Sharipov, G'.Salomov, N.Komilov, N.Otajonov, H.Boltaboyev, Sh.Abdullayev, H.Hamrayev, M. Javbo'riyev, Z.Isomiddinov, L.Husainova, N.O'rmonova, Sh. Isoqova, Z. Xudoyberganova, X.Hamidov, Sh.Ibrohimova kabi olimlar va tadqiqotchilarning monografiya, dissertatsiya va ilmiy maqolalarida o'z aksini topgan.¹³

¹² Фёдоров. Введение в теорию перевода. М., 1952

¹³ Bu haqda qarang: Badiiy tarjima do'stlik quroli. – T.: O'qituvchi nashriyoti, 1974. – B. 128; Badiiy tarjimaning aktual masalalari. – T.: Fan, 1977. – B. 227; Husainova L. Национальное своеобразие и перевод; Atoref. dis. ...f.f.nom. – T., 1987. B. 22. Hamrayev X. Воссоздание национального колорита произведений узбекской советской прозы во французских переводах; Atoref. dis. ...f.f.nom. – T., 1988. – B. 22; Javbo'riyev M. Воссоздание национального характера и исторического колорита в художественном переводе; Atoref. dis. ...f.f.nom. – T., 1991. – B. 22; Otajonov N. "Boburnoma" jahon adabiy jarayonida; Filol. fan. dok. ...diss. avtoref. – T., 1994. – B. 45; Boltaboyev H. Turkiy tamaddun ibtidosi // Mumtoz so'z qadri – T.: Adolat, 2004. – B. 169-176; Isomiddinov Z. Aldoqchi so'zlar bilan bahs // Tarjima san'ati. 5-kitob. – T., 1980. – B. 154-174; Isoqova Sh.I. Badiiy tarjimada milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi. Filol.fan.nom.diss. – T., 2004; Abdullayev Sh. D. Tarjima asarlarida frazeologizmlar semantikasi: Filol.fan.nom.diss. ... avtoref. – T., 2006. – B. 21, O'rmonova N.M. Tarjimada tarixiy-arxaik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi: Filol.fan.nom.diss. – T., 2008; Xudoyberganova Z. Har so'zning o'z o'rni bor // Yoshlik. -1999. -№ 6. – B. 36; Xudoyberganova Z. Tarjima mahorati // Yoshlik. – 2001. - № 5-6. –B.34; Hamidov X. Badiiy tarjimada so'z tanlash muammosiga doir. Sharqshunoslik – T.: ToshDSHI, 2013. № 16 B. 7-15// Badiiy asar tarjimasida tabiat tasvirining berilishi. Tarjima masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. –T.: Muharrir, 2012. B. 75-95 // Hamidov X. va Azzamova N.Q. Turkcha ijtimoiy-falsafiy va siyosiy atamalar tarjimasiga doir. Tarjima masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. –T.: Muharrir, 2012. B. 127-139// O'zbek va turk tillari orasida badiiy tarjimada "soxta ekvivalentlar" muammosi. Yosh tarjimonlar almanaxi. Samarqand: SamDCHTI -2012. B. 154-158// Badiiy tarjimada so'z va ibora sinonimlarini tanlashda duch kelinadigan muammolar. YER YUZI, adabiy-badiiy, ijtimoiy-ma'rifiy jurnal, 2013, B. 18-21// O'zbek va turk tillari badiiy tarjimasida "soxta ekvivalentlar" muammosi. Tarjima saboqlari: maqolalar to'plami/ Sh. Sirojiddinovning umumiy tahriri ostida. – Samarqand: SamDCHTI. 2013, B. 32-37; Ibrohimova Sh. Odil Yoqubov romanlaridagi milliylikning turkcha tarjimalarda aks etishi. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. T., - 2010// Badiiy asarlar tarjimasida qahramon portretining berilishi. Tarjima masalalari (Ilmiy maqolalar to'plami, №9 2012-yil 26-aprel. B. 96-116.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani rus tiliga qilingan tarjimalari asosida f.f.n, dot. To‘lqin Saydaliyevning “Mumtoz asar matni va badiiy tarjima muammolari”¹⁴, Xayrulla Hamidovning turk va rus tillariga qilingan tarjimalari asosida “O‘tkan kunlar romani tarjimalarida maqollarning berilishi”¹⁵ hamda turk tiliga Ahsan Batur tomonidan qilingan tarjimasi bilan bog‘liq Nargiza A‘zamovaning “O‘tkan kunlar romanining turkcha tarjimasida maqollarning berilishi masalasi”¹⁶ maqolalarida qator fikrlar bildirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu bituruv-malakaviy ishidan maqsad Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani turk tiliga Ahsan Batur tomonidan qilingan tarjimasini o‘rganib chiqish, asar tarjimasi, umuman tarjimada o‘z aksini topgan tarjimon mahorati haqida tasavvurga ega bo‘lish, shuningdek, ushbu romannning turkcha tarjimasi sifati va saviyasini va tarjimon o‘zbek adabiyotining durdona asari hisoblanmish “O‘tkan kunlar” romanining asosiy g‘oyasi, hamda muallifning asl niyat va maqsadlarini yetkaza olgan yoki olmaganligini tahlil qilishdir. Buning uchun quyidagi **vazifalarni** amalga oshirish maqsad qilib qo‘yilgan:

- Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani turkcha tarjimasi va unda tarjimon mahoratining aks etishi masalasini tahlil etish;
- “O‘tkan kunlar” romanida aks etgan tabiat tasvirining tarjimadagi in’ikosini tahlil qilish;
- “O‘tkan kunlar” romanining turkcha tarjimasida portret tasviri va unda aks etgan milliy xarakterning berilishini o‘rganish;
- “O‘tkan kunlar” romanida yozuvchi uslubining tarjimada berilishiga doir masalalarni o‘rganish;
- asarning turkcha tarjimasida tarjimonning maqol va ibora tanlash mahoratini tahlil qilish;

¹⁴ “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. 11-son 40-43-b.

¹⁵ Veb-sayt: www.fledu.uz. 107-113-b.

¹⁶ O‘zbek sharqshunosligi: buguni va ertasi. Ilmiy to‘plam, №4, T.: 2013, B. 203-208.

- asarda aks ettirilgan tarixiy davrni qayta yaratishda tarjimon mahoratining qay darajada namoyon bo'lganligini o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti. Ushbu bitiruv-malakaviy ishida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani turk tiliga Ahsan Batur tomonidan qilingan tarjimasi, shuningdek, tarjimon mahoratining qirralari va tarjimada so'z tanlash masalasi tahlil ostiga olinadi. Tarjimonning yutuqlari va kamchiliklari alohida tahlil etiladi.

Tadqiqot usullari. Bitiruv malakaviy ishda tahlil, tavsif, qiyoslash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

I Bob. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining turkcha tarjimai va unda tarjimon mahoratining aks etishi

1.1 “O‘tkan kunlar” romanidagi tabiat tasvirining tarjimadagi in’ikosi

Badiiy asarlarda berilgan tabiat manzaralari tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etadigan omillardan biri hisoblanadi. Chunki tabiat manzaralari tasvirida ijodkorning o‘zi qalamga olayotgan makonga munosabati, u joyni qanchalik bilishi, qahramonlar dunyosi va ular yashayotgan muhitni ne chog‘lik chuqur his qilishi bilinadi. Shu bois tabiat manzaralari tasviri badiiy asarning tarkibiy qismi hisoblanadi.¹⁷

Badiiy asarda muallif o‘z muddaosini ro‘yobga chiqarish uchun tasviriy va ifodaviy vositalardan foydalanadi. Asardagi tabiat manzaralari kitobxonning biror narsa haqida tasavvur hosil qilishi, muayyan tuyg‘uni his etishi, ko‘rish, eshitish mumkin bo‘lgan narsa va obrazlarni inson ongida hosil qiluvchi unsurlar tasviriy vositalar hisoblansa, asarda so‘z va iboralarning turli ma’no tovlanishlari, majoziy xususiyatlari, voqea-hodisalarni turli yo‘llar bilan ifodalash usullari-ifodaviy vositalar sanaladi.

Badiiy tarjimada tasvir vositalarining qayta yaratilishi va bunda so‘z tanlash muammosi tarjimondan zo‘r mahorat talab etadi. “Tarjimon –asarni boshqa tilda, ya’ni ona tilida qayta yaratish uchun muallif fikrini ancha pishitadi, o‘ziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab muqobil so‘z tanlaydi, bu so‘zlar ma’nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni iloji boricha to‘laroq ifodalash tashvishida yonadi”¹⁸ – deb yozadi G‘aybullar Salomov.

Yozuvchi mahoratining qirralari asar yaratishda qo‘llanilgan badiiy tasvir va ifoda vositalari bilan aniqlanadi. Ana shunday vositalardan biri badiiy asarda muhim ahamiyat kasb etuvchi tabiat tasviridir. Tabiatning betakrorligi insonda,

¹⁷ Aminova L. Turk yozuvchisi Yashar Kamol asarlarida badiiy mahorat masalalari, - fil.fan.nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan yozilgan dissertatsiya , T.: 2003, B. 84.

¹⁸ Salomov G‘., Tarjima san’ati, Toshkent, 1973, 57-b.

uning ruhiyatida aks etadi. Inson dunyoga kelgach tabiat bilan hamnafas bo'lib, uning injiqliklari-yu, atrofga taratayotgan go'zalliklaridan bahra olib yashaydi. Tabiatga shaydolik, undan ilhomlanish faqat insonga xos. Inson tabiat inom etgan go'zalliklardan o'ziga xos taassurotlar hosil qiladi. Faqatgina san'at sohiblari: yozuvchi va shoir badiiy so'z vositalaridan, rassom xilma-xil bo'yoqlardan foydalangan holda ana shu taassurotlarni asarlarda aks ettira oladi. Qaysi bir asarni o'qimaylik, unda, albatta, tabiat tasviriga duch kelimiz. Haqiqiy ijodkor insonni ona tabiat bilan birga, doimiy uyg'unlikda tasvirlaydi.

Yozuvchi asar yaratayotganida har bir hodisa, tabiat manzarasi, umuman, voqelikka o'z nazari bilan qaraydi. U asar g'oyasidan kelib chiqib, mos detal tanlaydi va o'sha tanlangan detal orqali asar mazmunida salmoqli o'rin tutgan fikrni ifodalaydi. Masalan, badiiy asarlarda tabiat tasviri berilayotganda ijodkorlar tez-tez murojaat qiladigan *yomg'ir* tasvirini har kim o'zgacha, o'z kayfiyatiga uyg'un, vaziyatni hisobga olgan holda beradi: "mayin, beg'ubor yomg'ir tomchilari", "hayotbaxsh yoqimli yomg'ir", "bahor yomg'iri" va shunga o'xshash tabiat hodisalari inson ruhiy holatining ijobiy tomonlari, hayotning go'zalligi, mazmuni, ko'klam tarovatini tarannum etsa, "qora bulut", "chaqmoq", "sovuq yomg'ir tomchilari", "kuchli jala" kabi tasvirlar inson ruhiyatidagi salbiy holatlar, qo'rquv, ichki g'alayon, xavf-xatar yoki tushkunliklardan darak beradi. Bunday tasvirlarda san'atkor tabiat hodisasi bo'lgan yomg'irni asar ixtiyoriga bo'ysundiradi, asar personajlari yoki bosh qahramonning ichki kechinmalari, voqelikka munosabatini shu tasvir vositasida ifodalaydi va bunda san'atkorning o'ziga xos uslubi namoyon bo'ladi. Bunda ko'p narsa asarda ifodalanadigan fikr, tanlangan mavzu, voqealar tavsifiga bog'liq.

Tarjimon asarni tarjima qilishga kirishishdan oldin ana shu jihatlarni aniqlab olmas ekan, asar "qalbiga yo'l topa olmaydi", ya'ni muallif muddaosini asar tarjimasini o'quvchi kitobxonga yetkazib bera olmaydi. Buning oqibatida tarjimada muallif uslubiga putur yetishi mumkin.¹⁹

¹⁹ Hamidov X. "Badiiy asar tarjimasida tabiat tasvirining berilishi", Tarjima masalalari (Ilmiy maqolalar to'plami, №9 2012-yil 26-aprel) 75-77-b.

Abdulla Qodiriy tabiatni tasvirlar ekan, jonlantirish, o‘xshatishlar, sifatlashlarni ko‘p qo‘llaydi. Masalan, romanning **“Jonso‘z bir xabar va qo‘rqunch bir kech”** nomli bobidan bir parcha:

“Oyning o‘n beshlari bo‘lsa-da, havoning bulutlig‘i bilan oy ko‘rinmas, chin ma‘nosi bilan qorong‘i kuzning qorong‘i bir tuni edi. Bir necha yuz yillardan beri yashab favqulodda zo‘rayib ketgan “Xo‘ja Maoz” mozorining chakalagi bu qorong‘iliqqa bir manba‘ kabi edi. Kuchlik bir yel turg‘an, qandaydir bir ishga hozirlang‘an kabi to‘rt tomong‘a yugurib yurar edi. Mozor chakaligining bir burchagida tutab yotg‘an to‘nka yonida sochlari o‘sib soqolig‘a qo‘shilib ketgan bir devona bu mudhish qorong‘iliqqa qarshi kurashkan kabi gulxanni yondirishg‘a tirishar, gulxan tavaragidan aylanib qo‘lidag‘i kasavi bilan to‘rt tomonidan kovlar edi. Yel borg‘an sari kuchlana bordi, chakalak tartibsiz holg‘a kirib ketdi, bittayarimta to‘kilmay qolg‘an yaproqlar shitir-shitir to‘kilishka oldilar, qarg‘a va zog‘chalar ayni uyqu zamonida tinchsizlangani uchun yelga qarshi namoyish qilg‘andek g‘o-g‘u bila chakalak ustidan aylana boshladilar. Yel kuchaygandan kuchayib borar va shu nusbatda mozor ichi ham yana bir qat qo‘rqunch holg‘a kirar edi, yel ketma-ket bo‘kurar, bunga chiday olmag‘an shox-shabbalar qarsqurs sinar, keksa yog‘ochlar g‘iyq-g‘iyq etib yolborish tovshi chiqarar edilar. Yel ortiqcha bir g‘azab ustida edi, yer yuzidagi tikkaygan narsani bukib-yanchib tashlamoqchi bo‘lgandek pishqirar edi... ” [1,222-223]

Ushbu lavha tarjimasini asl nusxa bilan qiyoslab ko‘raylik:

“Ayın on beş olmasına rağmen gökyüzü kesif bulutlarla kaplı olduğu için dolunay pek görünmüyordu. Ortalık zifiri karanlıktı.

Birkaç yüzyıldır balta yüzü görmediği için adamakıllı yaşlanmış olan “Hoca Maaz” mezarlığının çalılığı da bu karanlıkta bir menba gibi görünüyordu. Şiddetli rüzgar dinmiş, sanki başka bir hamleye hazırlanıyormuş gibi dört bir yana ılık nefesini üflüyordu. Çalılığın bir kenarında boylu boyuna yere uzanmış bir kötülüğün duldasında, saç sakalı birbirine karışmış bir divane karanlıkta boğuşmak için ateş yakmaya çalışıyordu. Birden yeniden şiddetlenen rüzgarın takviyesiyle ateş aniden güçlenirken, çalılar inleyerek sağa sola kıvranmaya,

dallarda kalan tek tük yapraklar pıtır pıtır dökülmeye başladı. Karga ve alaca kargalar uykudan uyandırılmanın verdiği sinirle çalılık üzerinde kanat çırpmaya, gak-guk sesler çıkarmaya devam ederken, rüzgar da alabildiğinde şiddetlenmiş, mezarlığı ürkütücü bir görünüm almıştı. Rüzgar durmadan uğulduyor, onun şiddetine dayamayan dallar yan yatıyor, çatırdıyor, yerlere kadar eğilip, inleyip yalvarıyorlardı. İyice öfkelenmiş rüzgar, önüne çıkanı kaldırıp yere çarpıyor, havaya savuruyordu...” [2, 233]

Ushbu parchada tarjimonning yutuqlari shundan iboratki, “Bir necha yuz yillardan beri yashab favqulodda zo‘rayib ketgan “Xo‘ja Maoz” mozorining chakalagi bu qorong‘iliqqa bir manba’ kabi edi” jumlası “Birkaç yüzyıldır balta yüzü görmediği için adamakıllı yaşlanmış olan “Hoca Maaz” mezarlığının çalılığı da bu karanlıkta bir menba gibi görünüyordu”- “bir necha yuz yillardan beri bolta ko‘rmaganligi uchun juda qarovsiz bo‘lib qolgan “Xo‘ja Maoz” mozorining chakalagi ham bu qorong‘ulikka bir manba kabi ko‘rinardi” shaklida o‘girilgan. Demak, bu holda “favqulodda zo‘rayib ketgan “Xo‘ja Maoz” mozorining chakalagi” “bolta ko‘rmaganligi uchun juda qarovsiz bo‘lib qolgan “Xo‘ja Maoz” mozorining chakalagi” shaklida o‘girilar ekan, ma‘no nuqtai nazaridan asl matnda nazarda tutilgan mazmun tarjima nusxada to‘la qamrab olingan.

“...yel ketma-ket bo‘kurar, bunga chiday olmag‘an shox-shabbalar qars-qurs sinar, keksa yog‘ochlar g‘iyq-g‘iyq etib yolborish tovshi chiqarar edilar...” jumlası “...Rüzgar durmadan uğulduyor, onun şiddetine dayanamayan dallar yan yatıyor, çatırdıyor, yerlere kadar eğilip, inleyip yalvarıyorlardı...” tarzida tarjima qilinib, bu o‘rinda ham ma‘no to‘la qamrab olingan, lekin ba‘zi so‘zlar tushirib qoldirilgan. Masalan, shox-shabbalar qars-qurs sinar birikmasi to‘lig‘icha dallar yan yatıyor, çatırdıyor deb o‘girilgan, keksa yog‘ochlar g‘iyq-g‘iyq etib yolborish tovshi chiqarar edilar birikmasida esa keksa yog‘ochlar tushirib qoldirilgan va unga tegishli bo‘lgan yolborish tovshi chiqarar edilar birikmasi oldingi birikmaga ulanib uning mantiqiy davomini hosil qilgan. Ya‘ni bu yerda qars-qurs singan ham, shamolga yolborgan ham shox-shabbalar bo‘lib qolgan.

Parchada keltirilgan ayrim lavhalar tarjimasida kamchiliklar kuzatiladi. Masalan, asl matnda “Oyning o‘n beshlari bo‘lsa-da, havoning bulutlig‘i bilan oy ko‘rinmas, chin ma‘nosi bilan qorong‘i kuzning qorong‘i bir tuni edi” jumlasini “*Ayin on beş olmasına rağmen gökyüzü kesif bulutlarla kaplı olduğu için dolunay pek görünmüyordu. Ortalık zifiri karanlıktı*” shaklida ikkita gap bilan ifodalangan. Bu yerda muallif oy yuzini bulut to‘sgan zim-ziyo kuz tunini ta’riflagan bo‘lib, tarjimada esa “*chin ma‘nosi bilan qorong‘i kuzning qorong‘i bir tuni edi*” birikmasi “*Ortalık zifiri karanlıktı*” – “Atrof zim-ziyo qorong‘u edi” tarzida o‘girilgan. Bu o‘rinda muallif urg‘u bermoqchi bo‘lgan qorong‘i kuzning qorong‘i bir tuni nazardan chetda qolgan.

Tahlilni davom ettiramiz: “Yel ortiqcha bir g‘azab ustida edi, yer yuzidagi tikkaygan narsani bukib-yanchib tashlamoqchi bo‘lgandek pishqirar edi” jumlasini turk tiliga “*İyice öfkelenmiş rüzgar, önüne çıkarak kaldırıp yere çarpıyor, havaya savuruyordu*” – “*yaxshigina g‘azabl原因 shamol oldidan chiqqanini yerga urar, havoga sovurardi*” tarzida tarjima qilgan. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, tarjimon bu yerda so‘zma-so‘z tarjimadan qochgan holda mazmunan jumlaning ifoda etishga uringan va buni uddalay olgan.

Asarning “**Bizda kim ko‘p yig‘laydir**” bobidan bir o‘rnak keltirib o‘tamiz:

“*Kuz kunlarining oyog‘i va qish kunlarining boshi edi. Daraxtlardagi sariq barglar to‘kilib tugalgan, yer yuzi o‘zining qishqi sariq kiyimini kiygan edi. To‘rt tomonining o‘ralg‘anlig‘i soyasida yaproqlarini to‘kilishdan saqlab qolg‘an bu gilos yog‘ochlari ham bu kun tungi qora sovuqqa chidalmay, yelning ozgina harakati bilanda barglarini shirt-shirt uzib tashlamoqda edilar. Havo ochiq bo‘lib, quyosh tuzukkina ko‘tarilgan, ammo uning o‘zi ham bu kun uncha ta’siri yo‘q, bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da keskan edi.*” [1,211]

Abdulla Qodiriy keng ma‘nodagi so‘z san’atkoridir. Bu parchada muallif kuz mavsumining nihoyalab, qish faslining kirib kelishi holati bilan bog‘liq tabiat tasvirini juda chiroyli o‘xshatishlar va o‘zbekona lutf bilan ta’riflaydiki, beixtiyor ko‘z o‘ngimizda sovuq kech kuz, daraxtlar barglarini to‘kib, o‘zlari esa xuddi

sovuqdan titrayotgandek shamolda qaltirab turishlari gavdalanadi. Endi bu parchani turk tiliga tarjimasi bilan qiyoslab, tahlil etsak:

“Güz günleri sona ermişti. Kış gelmek üzereydi. Ağaçlar sarı yapraklarını dökmüşler, toprak gazellerle örtülmüştü. Dört bir yanı çevreli olduğu için kendini nispeten korumuş olan kiraz ağaçları dahi bugünkü kara ayaza dayanamıyor, rüzgarın hafif hareketleri karşısında yapraklarını tek tek zeminin üzerine yığıyordu. Hava açık, güneş çıkmış olmasına rağmen, aşırı soğuk ayaz karşısında güneş ışıkları pek de etkili değildi.” [2,222]

Tarjimon asliyatdagi *“Kuz kunlarining oyog’i va qish kunlarining boshi edi...”* jumlasini tog’ri anlay olgan va tarjimada uni ikkita gap: *“Güz günleri sona ermişti. Kış gelmek üzereydi...”* (turkcha matnning mazmuni quyidagicha: *“Kuz kunlari nihoyasiga yetgan. Qish kelishi arafasi edi”*) tarzida o‘giran. Tarjimadan mutarjimning tabiat hodisasini qanchalik ilg’ab olganligi ko‘rinib turibdi. *“Daraxtlardagi sariq barglar to‘kilib tugalgan, yer yuzi o‘zining qishqi sariq kiyimini kiygan edi...”* jumlasini esa tarjimon *“Ağaçlar sarı yapraklarını dökmüşler, toprak gazellerle örtülmüştü...”*, (mazmuni: *“Daraxtlar sariq barglarini to‘kkan, yer yuzi xazonlar bilan qoplangandi”*) tarzida o‘giran. Bu o‘rinda tarjimon muallif tomonidan qo‘llanilgan *yer yuzi o‘zining qishqi sariq kiyimini kiygan edi* o‘xshatishini *toprak gazellerle örtülmüştü* tarzida oddiy so‘z birikmasi bilan tarjima qilgan. *“Havo ochiq bo‘lib, quyosh tuzukkina ko‘tarilgan, ammo uning o‘zi ham bu kun uncha ta’siri yo‘q, bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da keskan edi...”* gapi esa *“Hava açık, güneş çıkmış olmasına rağmen, aşırı soğuk ayaz karşısında güneş ışıkları pek de etkili değildi...”*, (turk tilidagi matnning mazmuni: *“Havo ochiq, quyosh chiqqan bo‘lishiga qaramasdan, kuchli sovuq tufayli quyosh nurlarining uncha ham ta’siri yo‘q edi”*) shaklida tarjima qilingan. Bu o‘rinda tarjimon asliyatda: *quyosh tuzukkina ko‘tarilgan, ammo uning o‘zi ham bu kun uncha ta’siri yo‘q, bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da keskan edi* shaklidagi qo‘shma gapni *güneş çıkmış olmasına rağmen, aşırı soğuk ayaz karşısında güneş ışıkları pek de etkili değildi* tarzida sodda gap shaklida tarjima qilgan holda ma’noni saqlab qolishga erishgan.

Tahlilni davom ettirgan holda, asarning **“Toshkand qamalda”** bobidan yana bir o‘rnak keltirib o‘tamiz:

“Bu kun Toshkand qamalining elli birinchi kuni. Sovuq biroz yumshab tushkan, quyosh ochiq havoda harakat etmakda edi. Yerlar erib, hamma yoq shilt-pilt loy, qo‘rg‘on kungiralaridagi qirovlar bo‘g‘qa aylanib ko‘kka ko‘tarilmakda edilar.” [1,78]

Turk tiliga tarjimasi:

“Taşkent muhasara altına alına elli bir gün olmuştı. Soğuk biraz olsun dinmiş, güneşli bir gün başlamıştı. Karlar eridiği için her taraf vıcık vıcık çamur içindeydi. Kalenin surları ise gökle birleşecekmiş gibi görünüyordu.” [2,85]

Tarjimada so‘z tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Agar tarjimon asliyat muallifining so‘zni qanchalik mahorat bilan tanlaganini his eta olsa, tarjimada ham so‘zni shunchalik ishonchli bera oladi. Shu o‘rinda yuqorida keltirib o‘tgan parchamizga diqqatimizni qaratsak: asliyatda qish kunlarida quyosh chiqib, uning taftidan sovuq zahrining biroz kesilishi, qorlar erishi natijasida, hamma yoqning loy bilan qoplanishi, shuningdek, qo‘rg‘on kungiralaridagi qirovlarning quyosh nuri ta‘sirida erib, bug‘ga aylanib ko‘kka ko‘tarilishi holati tasvirlangan. Turk tiliga tarjimasida tarjimonning yutuqlari quyidagi o‘rinlarda ko‘rinadi: *“Sovuq biroz yumshab tushkan, quyosh ochiq havoda harakat etmakda edi. Yerlar erib, hamma yoq shilt-pilt loy...”* jumlası *“Soğuk biraz olsun dinmiş, güneşli bir gün başlamıştı. Karlar eridiği için her taraf vıcık vıcık çamur içindeydi.”* (mazmuni: “sovuq biroz tingan, quyoshli bir kun edi. Qorlar eriganligi sababli hamma yoq shilt-pilt loy edi”) deb tarjima qilingan. Bu yerda ko‘rishimiz mumkinki, tarjimon muallif fikrini anglay olgan. Ayniqsa, yerlar erib hamma yoqning loy bilan qoplanishi jumlasida muallif “yerlar erib” o‘xshatishi orqali, aslida, qorlarning erishiga ishora qiladi. Tarjimon *Karlar eridiği için her taraf vıcık vıcık çamur içindeydi* deb tarjima qilib, to‘gri yo‘l tutgan. Lekin ba‘zi o‘rinlarda ayrim kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilgan. Masalan, *qo‘rg‘on kungiralaridagi qirovlar bo‘g‘qa aylanib ko‘kka ko‘tarilmakda edilar* jumlası *Kalenin surları ise gökle birleşecekmiş gibi görünüyordu* tarzida tarjima qilinganligi sababli, umuman

boshqa ma'no o'rta qchiqqan. Turk tilidagi jumlaning so'zma-so'z tarjimasi quyidagicha: *"qal'aning devorlari osmon bilan birlashib ketadigandek ko'rinardi"*. Bu yerda ko'rishimiz mumkinki, tarjimon muallif nazarda tutgan qo'rg'on kungiralaridagi qirovlar erib, bug'ga aylanib ko'kka ko'tarilishi bilan bog'liq tabiat tasvirini noto'g'ri tushungan va tarjimada ham yanglishlik, ya'ni qirov erib bug'ga aylanib, ko'kka ko'tarilishi o'rniga, qal'a devorlarining osmon bilan birlashib ketganday ko'rinishi holati yuzaga kelgan.

Romandagi tabiat tasviriga oid yana bir o'rnak:

"Hozir ko'klam kunlari: qirlar, tog'lar, soylar; ko'k-qizil, oq-qora, sariq-zangor, pushti-go'las va tag'in allaqancha ranglik chechaklar bilan ustlarini bejab, qishi bilan to'nggib arang yetishkan oshiqlarig'a yangi hayot, yangi umid beradilar. Qish bo'yi allaqaysi go'r ostlarida junjib chiqq'an qush zotlari: chumchuqlar, chittaklar, to'rg'aylar, sa'valar va boshqa allaqancha qush durkumlari o'z to'plari bilan vijir-vijir, chug'ur-chug'ur sayrab kuladirlar, yer yuzini tutkan chechak gilamlari ustini o'pib yalaydirlar, yotib cho'qiydirlar, sapchip uchadirlar... uzoq-uzoqdan kakku qush ham arzi vujud qiladir: "kakku-kakku". [1, 138]

Bir so'z bilan aytish mumkinki, Abdulla Qodiriy haqiqiy ma'nodagi so'z san'atkoridir. Bahor kelishi bilan yurtimiz tabiatida, tog'lari-yu bog'larida ro'y beradigan o'zgarishlarni, yangilanishlarni, go'zalliklarni boricha, shu bilan bir qatorda, juda ajoyib tarzda tasvirlagan. Endi bu go'zallikni turk tiliga tarjimasi qay tariqa qayta yaratilganligini ko'rib chiqamiz:

"Bahar g'unleri...

Bütün bir kış donup kalan âşıklara canlılık veren bozkırlar, dağlar, nehirler çoşkuyla dalgalanıyor; mavi, kırmızı, sarı, yeşil, pembe, siyah kısacası rengârenk çiçekler toprak ananın bağrında birbiriyle dansediyorlardı. Kış boyu mağaralarda tüneyip kalan kuşlar şimdi cıvıl cıvıldılar. Toprak anayı bir halı gibi kaplayan çiçekler üzerinde kanat çırpıyorlar, daha uzaklardan ise gökkargaların "gırak..gırak" sesleri işitiliyordu. [2, 145]

Tarjimon tabiat tasviri bilan bog'liq bu parchani so'zma-so'z o'g'irishdan qochgan holda chiroyli tarjima qilishga erishgan. Lekin tarjimon tasvirdagi ba'zi detallarni, ya'ni *chittaklar*, *to'rg'aylar*, *sa'valar* kabi qush turkumlarini tarjima qilmasdan tushirib qoldirgan. Ehtimol, tarjimon qush turlarini tarjima qilishda jiddiy xatoga yo'l qo'yishdan qochgandir. Chunki o'simlik, hayvonot dunyosi joy va makonga ko'ra o'zgarib turadi. Bir hududda bor o'simlik yoki hayvon boshqa yerda uchramasligi va o'z navbatida, o'z atash ma'nosiga ega bo'lmasligi mumkin. Shu tufayli bu kabi so'zlar tarjimon oldiga bir qancha muammolarni qo'yadi. Fikrimizcha, ba'zi anglashilmovchiliklar kelib chiqmasligi uchun yuqorida sanab o'tgan so'zlarimiz tarjima qilinmasdan tushirib qoldirilgan. Shunga qaramasdan, tarjimon bir o'rinda berilgan *uzoq-uzoqdan kakku qush ham arzi vujud qiladir: "kakku-kakku"* jumlasini turk tiliga *daha uzaklardan ise gökkargaların "gırak..gırak"* sesleri *işitiliyordu* tarzida o'g'irgan. Ko'rib turganimizdek, mutarjim *kakku qushini gökkarga* deb tarjima qilgan. Aytishimiz mumkinki, bu tarjimada biroz noaniqlik bor, chunki *gökkarga* bilan *kakku* umuman boshqa boshqa qushlar hisoblanadi. Kakku - o'zi in qurmasdan, boshqa qushlarning iniga tuxum qo'yadigan, "kakku" deb sayraydigan o'rmon qushidir. Bu qush turk tilida *guguk kuşu* deb nomlanib, tarjimon bu o'rinda shu so'zdan foydalansa, mantiqan to'g'ri yo'l tutgan bo'lardi. Chunki, muallif bu tabiat tasvirida bahor faslini ta'riflagan va shu faslga mos detallarni tanlagan. Tarjimada berilgan *gökkarga* esa umuman bahor fasli uchun mos bo'lmagan qushdir.

1.2. "O'tkan kunlar" romanining turkcha tarjimasida portret tasviri va unda aks etgan milliy xarakterning berilishi

Muayyan milliy adabiyotning yuksak namunasi sifatida har qanday badiiy asar, avvalambor keng va teran ko'lamdagi milliylik xususiyatiga ega bo'ladi. Binobarin, mazkur xususiyat o'z teranligini, kengligini tarjimada ham saqlab qolishi kerak. Buning uchun tarjimondan asliyatga monand to'g'ri tasavvur hosil qiladigan matn yaratish talab qilinadi.

Ijodkor turmushning o‘zidagi “oq” va “qora” ranglar to‘qnashuvini gavdalandirish orqali turli-tuman xarakterli kishilar qiyofasini namoyon etadi. Kishilarni shunchaki umumiy tarzda emas, balki muayyan xarakter egasi sifatida tasvirlash badiiy adabiyotning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Adabiyot turli-tuman xarakterlarni gavdalandirish orqali insonning ichki dunyosini, uning ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini aks ettiradi.²⁰

Tarjimonga tarixiy mavzudagi asarlarni tarjima qilish zamonaviy mavzudagi asarlarni tarjima qilishga nisbatan murakkab mashg‘ulot hisoblanadi. Tarixiy mavzudagi asarlarda tarixiylik va milliylik bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu tushunchalarning birini tarjimada noto‘g‘ri aks ettirilishi, o‘z navbatida, ikkinchisining ham buzilishiga olib keladi. Demak, tarjimon oldidagi murakkab masalalardan yana biri tarjimada milliy xarakterni qayta aks ettirishdir. Chunki, asar qahramonlarining nafaqat o‘ziga xosligini, balki ularning botiniy va zohiriy dunyosini ifoda etgan portret – tavsifi, yorqin xarakteriga xos xatti-harakatlari va holatlari ham milliy xarakterning tarkibiy qismlari bo‘lib, ularni tarjimada mayda unsurlarigacha berish tarjimondan katta mahorat talab qiladi. Zero, barcha xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi, uyg‘unlashtiruvchi xarakter in‘ikosini o‘rganish va shu asosda baho berish tarjima tahlilidagi yetakchi hamda asosiy mezon bo‘la oladi. Chunki, badiiy asarni tashkil qiluvchi barcha unsurlar qahramonlar xarakterini ochib berishga yo‘naltiriladi. Adabiyotshunos N.Dragomeratskaya ta’kidlaganidek, “Har qanday obraz – inson, tabiat, ijtimoiy hodisa in‘ikosi inson xarakterini bevosita yoritishga xizmat qiladi”.²¹ Demak, xarakter badiiy asarni, shu bilan tarjimani tahlil etishda katta ahamiyatga molik.

“Xarakter yozuvchi asarda tasvirlayotgan tarixiy shart-sharoitlarga xos inson yashash tarzi (xatti-harakatlari, fikr-kechinmalari) va yozuvchining estetik me’yoriga muvofiq ravishda tasvir etiladi”²². Xuddi shu fikrga tayanilgan holda olib boriladigan xarakter tahlili til, syujet, kompozitsiya tahlilida uyg‘unlashadi.

²⁰ Aminova L. Turk yozuvchisi Yashar Kamol asarlarida badiiy mahorat masalalari, - fil.fan.nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan yozilgan dissertatsiya, T.: 2003, B. 35.

²¹ Dragomeratskaya N.V. художественный историзм как теоретическая проблема // Филологические науки. 1977. №4, 17 –B.20.

²² Тимофеев А. Основы теории литературы. М.: Прос. 1971. – 156-с.

Zero, xarakter shular ichidagina mavjud. Bu uyg'unlik esa o'z navbatida asarning umumiy mavzusi hamda g'oyasi tahlili bilan birgalikda kechadi. Ma'lumki, asardagi barcha unsurlarni qamrab olgan tarjima ko'p qamrovli bo'lishi bilan bir qatorda yaxlitlikka ega. Shu nuqtai nazarga ko'ra milliy xarakterning tarjima-dagi in'ikosi masalasini o'rganish tarjimoni asliyatga badiiy-g'oyaviy uslubiy hamohangligi masalasini ham idrok etish demakdir. "Yozuvchi uchun asosiy va eng qiyin masala xarakter yaratishdir, qolgan hamma narsa ana shunga bog'liq-deb yozadi K.Chukovskiy. – Xarakter yaratishga muyassar bo'ldimi, demak, roman, povest va shu kabilar yaratishga muvaffaq bo'ladi. Agar xarakter yo'q bo'lsa, roman ham yo'q. Til, peyzaj, kompozitsiya, stilning butun hiyla – nayranglari haqiqiy yozuvchi qo'lida faqatgina kishi shaxsini, xarakterini yaratish vositasidir"²³. U yoki bu xalqning milliy xakteri esa shu xalqning uzoq tarixiy hayoti davomida turli siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy omillar ta'sirida shakllanadi. "Milliy xarakter qandaydir abadiy "irqiy ruh" emas, balki tarix mahsuloti hisoblanadi. U juda sekin o'zgaradi va xalqning urf-odatlar, temperamenti, san'ati va umuman faoliyatining barcha jabhalarida namoyon bo'ladi"²⁴.

Tarjimon tarixiy muhit va milliy xarakter xususiyatlarini diqqat bilan o'rganishiga bo'lgan talablar chindan ham tabiiy bo'lib, ularni badiiy tarjima masalalariga bag'ishlangan deyarli barcha maqolalar va tadqiqotlarda uchratish mumkin. Biroq bu masala o'z mohiyati bilan o'ta murakkab bo'lib, agar tarjimon o'zining "g'arb" va "sharq" xarakterlarini subyektiv idrok etishidan kelib chiqib, tor doirada ish olib borsa, bu masala yanada mushkullashadi. Tarjimashunos G.Lomidze milliy ruh va milliy xakterni noto'g'ri talqin qilishlaridan bezovtalanib: "Milliy xarakter kategoriyasiga ba'zan telbalaricha yondashiladi. Milliy xakterni sof holda, faqat bir xalqqagina xos bo'lgan va boshqa xalqlarda umuman uchramaydigan alohida xususiyatlar majmuasi, deb qarashadi. Bunday mavhum, alohida milliy xakter tabiatda yo'q"²⁵, deb yozganida tamoman haqli edi.

²³ Чуковский К.И. Высокое искусство// Umarov. Tahlil san'ati kitobidan. T.: G'. G'ulom. 1978, 74-b.

²⁴ Гачечиладзе Г.Р. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. М.: СП.1980. 149-с

²⁵ Ломидзе Г.И. Современник, изд. 2-е, М.: Акад.наук. 1974. 78-с.

Xullas, bolgar olimasi Anna Lilova ta'kidlaganidek, "Tarjimada qiyinchiliklar ma'lum darajada u yoki bu asardagi milliy xarakterni aniq, ravshan qayta yaratish bilan bog'liq. Asar milliy xarakterni qanchalik yorqin aks ettirsa, tarjimon unga mos keladigan muqobil tasviriy vositalarni topishda shunchalik qiyinchiliklarga duch keladi"²⁶.

Bu esa taniqli tarjimashunos olim Jumaniyoz Sharipov ta'kidlaganidek "Tarjimon qaysi tildan tarjima qilayotgan bo'lsa, o'sha xalqning milliy koloritini, xususiyatlarini sinchiklab bilmog'i, his qilmog'i kerak" dir.

Chindan ham asar qaysi tilga tarjima qilinayotgan bo'lsa, o'sha tilda ravon yangrashi, o'sha tilga xos bo'lgan vositalar yordamida yoritilishi kerak. Tarjimoni o'qiganda kitobxon uni xuddi asliyatdek his eta olsa, bu tarjimonning yutug'idir. "Katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari bor, u o'z xarakteriga, o'zining tili hamda adabiy qoida va uslubiga egadir. Adabiy asarlarni ularning milliy xususiyati bo'yicha yengil ajrata bilish mumkin. Mana shuning uchun milliy xususiyatini tarjima qilinayotgan tilda bera bilish katta ahamiyatga egadir. Ijodkor tarjimonning san'ati – mahorati xuddi ana shunda bilinadi".²⁷

Badiiy asarda obrazni xarakterlovchi asosiy vositalardan biri portret tasviridir. Portret tasviriy san'atda va badiiy adabiyotda hayot voqeligini bevosita ko'rsatishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Portretga ajratilgan o'rin, yuklangan vazifa – hammasi bir mantiqqa, ma'lum bir qonunga bo'ysundirilgan bo'lishi shart. Portret o'z-o'zicha, o'z holicha hamma narsadan ustun turishi, umuman, asar yo'nalishi bilan bog'lanmasligi mumkin emas. Uning o'rnini ham, vazifasini ham asosan yozuvchi belgilaydi. U istasa, qahramonning xarakterini ochishda portretga yetakchi o'rin ajratadi, istasa butunlay e'tibor bermaydi. Bu yozuvchining u yoki bu portret usuliga moyilligi bilan izohlanadi. Lekin, muallif ixtiyori ham ma'lum darajada nisbiy: hech vaqt asarda portret o'z-o'zicha, vazifasiz bo'lmaydi. Vazifa har bir davrda, har bir san'atkorda bir xil bo'lgan emas.

²⁶ Лилова А. Введение в общую теорию перевода. М.: Высш. шк., 1985. 103-с.

²⁷ Sharipov J. She'riy tarjimaning ba'zi masalalari. T.: Fan. 1959. 32-33b.

Turmushda bir-biriga tamomila o'xshash kishilar bo'lmaydi, ularning har birida ichki va tashqi xususiyatlar faqat ulargagina xos bo'lishi mumkin. Demak, voqelikning badiiy in'ikosi bo'lgan asarlardagi personajlar ham bir xil ko'rinishga ega emas.

Binobarin, yozuvchi tasvirlagan qahramoni xarakterini o'ziga xos tomonlarini mujassamlashtiruvchi unsurlardan asosiysi bo'lgan portret tasvirini tarjimada berish oson ish emas. Negaki "tarixiy shaxs, yoki tarixiy voqealarni qanday bo'lsa shundayligicha, bo'yamasdan, xolis ko'rsatish kerak. Xolis munosabatda bo'lish lozim²⁸".

Yozuvchi o'zi yaratayotgan obraz vositasida hayotga, uni o'rab turgan muhitga, insonlarga munosabatini namoyon etadi. Yaratilgan obrazda yozuvchining dunyoqarashi, hayotni tushunishi, fikrlashdagi o'ziga xosligi aks etadi. Tarjimon obrazni to'g'ri aks ettirsa, asar g'oyasi va ko'tarilgan hayotiy muammolarni benuqson ifodalashga erishadi. Qahramon portreti tasviri ana shunday vositalardan biridir.

Ma'lumki, badiiy portret insonning tashqi ko'rinishi, yuzi, libosi, yurish-turish tasviri bo'lib, qahramonning ma'naviy qiyofasini yorqinroq, aniqroq tasvirlashga ko'mak beruvchi san'atdir. Zotan, qahramonning tashqi qiyofasi, portreti tasviri obraz, xarakter mohiyatini yoritishning muhim unsuri hisoblanadi. Portret tasviridagi o'xshatishlar, sifatlashlarda milliy o'ziga xoslik yorqin aks etadi. Zero, yozuvchi bu o'xshatish, sifatlashlarni o'zi mansub bo'lgan millat moddiy-ma'naviy olamiga xos unsurlardan oladi. Ma'lum bir asar qahramonining obrazini tarjimada to'laqonli aks ettirish uchun uning portretini, nutqini, xatti-harakatini to'g'ri tasvirlab berish lozim. Tasvirlashning boshqa vositalari bilan bir qatorda portret tipik obraz yaratishning ta'sirchan vositasi hisoblanadi. Portret qahramonning ichki dunyosini ochib berishga, xarakterini individuallashtirishga, uning o'zgachaliklarini ajratib turuvchi xususiyatlarni ko'rsatishga xizmat qiladi.

²⁸ Ahmedov B. Tarix – haqiqatning onasi. T.: Yosh gvardiya. 1989. – 46-bet

Yozuvchining ijod qilish, yaratish uslubi va mahorati muayyan g'oyaviy-badiiy funksiyalar bilan bog'liq ravishda yuzaga chiqadi. Bu funksiyalarni, asarda, ma'lum darajada, portret xarakteristikasi bajaradi. Shu boisdan qahramon portretini tarjimada to'laqonli tasvirlab berish uchun tarjimon portret yaratishda asar muallifi qo'llaydigan individual usullar haqida aniq tasavvurga ega bo'lmog'i, har bir portret tasvirining xarakterga aloqador nuqtalariga, milliy xususiyatlariga diqqat qaratishi, portretidagi har bir detalning mazmuni va vazifalarini aniqlashi kerak bo'ladi.²⁹

“O'tkan kunlar” romanida yozuvchi qahramonlarning ham ichki dunyosini, ham tashqi ko'rinishini, shuningdek, xarakterini ochib berishda qahramon portretini o'ziga xos yo'sinda aks ettirgan. Muallif birinchilardan bo'lib qahramonning tashqi ko'rinishi orqali uning psixologiyasi, xarakteri, ichki dunyosini ko'rsatishga erishgan. Qahramon portretini tasvirlashda ko'proq milliy bo'yoqqa ahamiyat berilganligi, o'z navbatida, tarjima jarayonida mutarjimiga noqulayliklar tug'dirishi mumkin. Ushbu asarning turk tiliga qilingan tarjimasini tahlil etar ekanmiz, qahramon portreti tarjima jarayonida qanday ifoda etilganligiga e'tiborimizni qaratamiz. Asarning **“Otabek Yusufbek hoji o'g'li”** nomli birinchi bobida Otabekka berilgan ta'rif: **Asliyat:**

“Og'ir tabi'atlik, ulug' g'avdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit.” [1,6]

Muallif Otabekning “og'ir vazmin”, “salobatli”, yuzining esa “ko'rkam va oqligiga”, qaddi-qomati raso, ya'ni “kelishgan”, ko'z va qoshlari bir-biriga mutanosib ravishda qoraligi va qahramonimizning yoshini bildirish uchun “endigina murti sabz urgan” ligiga ishora qiladi. Muallif Otabekning portretini o'zbekona ruh bilan mohirona tasvirlab bergan. Bu satrlarni o'qigan kitobxon ko'z oldiga beixtiyor yosh, navqiron, ayni kuch-quvvatga to'lgan viqorli ko'rkam, shu bilan bir qatorda, bu ko'rkamlikni yanada boyitgan og'ir vazmin bir yigit siymosi gavadalanadi. Endi aynan shu parchani turk tiliga tarjimasi bilan solishtiramiz:

²⁹ Ibrohimova Sh. Badiiy asarlar tarjimasida qahramon portretining berilishi. Tarjima masalalari (Ilmiy maqolalar to'plami, №9 2012-yil 26-aprel 96-97-b.

“Ağır başlı, vakur, beyaz çehreli, siyah gözlü, kara kaşlı ve pala bıyıklı bir yığitti.” [2,11]

Tarjimadan ko‘rinadiki, qahramon portretini mutarjim asl nusxaga monand bera olgan. Otabek portretiga xos detallarni turk tiliga berish uchun kerakli ifodalarni topgan. Masalan, *“og‘ir ta‘biatlik”* uchun *“ağır başlı,”*, *“qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshlik”* o‘rnida *“siyah gözlü, kara kaşlı”* shaklidagi birikmalarni qo‘llagan. Tarjimon muallifning *“ulug‘ gavdalik”* birikmasining o‘rniga *“vakur”* so‘zini qo‘llagan va to‘g‘ri yo‘l tutgan. Aslida *“vakur”* so‘zi ko‘proq *“vazmin,”* *“jiddiy”* ma‘nolarini anglatga ham, uning ikkinchi bir ma‘nosi *“mag‘runona va ulug‘vor ko‘rinish,”* ya‘ni *“viqorli”* degan mazmunda keladi. Bu o‘rinda muallif ham aynan Otabekning salobati haqida so‘zlamogda va aytib o‘tish kerakki, *“vakur”* aynan salobatli, viqorli ma‘nosida kelib Otabekning shaxsini ochib berolgan. Lekin tarjimada Otabek tasviridagi *“kelishgan”* so‘zi tushib qolgan. Bu yerda *“yakışıklı”* so‘zidan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Yana shuni ham aytib o‘tish kerakki, Otabek portretidagi *“endigina murti sabz urgan bir yigit”* birikmasini tarjimon *“pala bıyıklı bir yığitti”* tarzida tarjima qilgan. Yozuvchi bu yerda Otabekning endigina murti, ya‘ni mo‘ylovi ko‘rina boshlaganiga va bu bilan Otabekning endigina yigitlik chog‘iga kirganiga urg‘u beradi. Turk tilida esa buning *“pala bıyıklı”* deb tarjima qilinganligi ma‘noni o‘zgartirib yuborgan. Chunki turk tilida *“pala bıyıklı”* birikmasi uzun va qalin mo‘ylovli kishilarga nisbatan qo‘llaniladi. Bundan ko‘rinadiki, ma‘no asliyatdan ancha uzoqlashgan va Otabek portretida sezilarli o‘zgarish sodir bo‘lgan. Ya‘ni *“endigina murti sabz urgan bir yigit”* *“uzun va qalin mo‘ylovli bir yigit”* ga aylangan.

Yozuvchi Kumushbibining qiyofasini quyidagicha chizadi: *“...Uning qora zulfi par yostiqlarning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuq jingila kiprak ostidag‘i tim qora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi... qop-qora kamon, o‘tib ketgan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi...to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi biroz qizilliqq‘a aylangan-da, kimdandir uyalg‘an kabi...Shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan oq nozik qo‘llari bilan latif burnining o‘ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo‘li*

bilan qo'ndirilg'an qora xolini qashidi va boshini yostiqdanda olib o'turdu..." [1,28]

Tarjimasi: *"...Siyah zulfu kuş tüyü yastık üzerine yayılmış, kavisli gür kirpikleri altındaki simsiyah gözleri belli bir şeye bakıyormuş gibi dikilmiş, uzun keman kaşları bir şeyden ürkmüş gibi gerilmiş, dolunay gibi berrak yüzü ise birinden utanmış gibi kızarmıştı... Bir ara yastığı sımşık tutan ellerini çözerek, zarif burnunun sağ tarafına Yaratan'ın özenle yerleştirdiği siyah benini kaşından sonra başını yastıktan kaldırıp oturdu..."* [2,34-35]

Abdulla Qodiriy so'zlarni tanlab ishlatadi. Portret tasvirida ham Kumushbibining go'zalligini, uning sochlarini, kipriklarini va shu kiprik ostidagi tim qora xumor ko'zlarini, ko'zlariga mutanosib ravishda chizilgan qora va qiyiq qoshlarini, to'lin oydek sof, oppoq yuzini va qizil yanoqlarini, shuningdek, har qanday san'at asari bilan raqobatlasha oladigan, go'zallikni tom ma'noda mukammal holga keltirgan, tabiatning usta qo'li bilan qo'ndirilgan qora xolini so'z vositasida mohir rassomdek chizadi. Ushbu unsurlarning tarjimada qayta aks ettirilishi obrazni to'laqonli chiqishini ta'minlaydi. Berilgan portret tarjimasini tahlil etadigan bo'lsak, tarjima muvaffaqiyatli chiqqan. Tarjimon ham muallif tilini tushungan va matnni mahorat bilan tarjima qila olgan. Bularni quyidagi o'rinlarda ko'rishimiz mumkin: *quyuq jingila kiprak ostidag'i tim qora ko'zlari bir nuqtag'a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko'rgan kabi...* ifodasi uchun *kavisli gür kirpikleri altındaki simsiyah gözleri belli bir şeye bakıyormuş gibi dikilmiş* birikmasini, *to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzi biroz qizilliqq'a aylangan-da, kimdandir uyalg'an kabi...* ta'rifi uchun *dolunay gibi berrak yüzü ise birinden utanmış gibi kızarmıştı...* ifodasini qo'llaydi. Tarjimonning mahorati Kumushbibining *latif burnining o'ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilg'an qora xolini* tarjimada qayta yaratishda ko'zga tashlanadi. Mutarjim bu ta'rifni *zarif burnunun sağ tarafına Yaratan'ın özenle yerleştirdiği siyah beni* shaklida to'g'ri tarjima qilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek millati tim qora ko'zli, shahlo yoki humor ko'zli qizlarni yaxshi ko'rgani uchun asarlarda go'zal qizlar portreti ta'rifida aynan

“tim qora, shahlo yoki humor ko‘zlar” tasvirini o‘qiymiz. Lekin turk millati moviy, yashil ko‘zlarni qadrlagani bois turk asarlarida go‘zal qizlar tasvirida “tim qora” emas, aynan “moviy ko‘zli, yashil ko‘zli” kabi tasvirlar joy oladi. Hattoki shu kabi ranglarni ko‘zlar uchun “mavişim” “zümrüt gözlüm benim” kabi tasvirlarga ham ko‘p duch kelamiz. Lekin yuqorida keltirilgan parchaning tarjimasida ko‘rganimizdek, tarjimon o‘zbek mintaletiti asosida yondashib, “simsiyah gözlü” deb tarjima qiladi. Aytish mumkinki, bu tarjima ham matnga mos kelgan, ham unda o‘zbekona milliy ruh va qiyofa saqlab qolingan.

Keyingi portret tasviri va tarjimasini qiyoslab ko‘raylik: *“O‘n yetti yoshlar chamaliq, kulchalik yuzlik, oppoqqina, o‘rtacha husnlik Zaynab qayin onasining tilak va sha‘niga loyiq tavozi’ – odoblar bilan bitta-bitta bosib dasturxon yonig‘a keldi”* [1,159]

Turkcha tarjimasi:

“On yedi yaşlarında, tombul yanaklı, beyaz, vasat güzellikte olan Zeynep, kaynanasının arzu ve şanına uygun bir tevazu ve edeple adımlarını tek tek basarak sofraya yanına geldi.” [2,167]

Yozuvchi Zaynab obrazi tasvirida Zaynabning o‘n yetti yoshlar atrofida va kulcha yuzli ekanligini ta’kidlaydi. Tarjimada esa *“On yedi yaşlarında”* deb o‘girilgan bo‘lib, yozuvchining *“chamaliq”* so‘ziga unchalik urg‘u berilmagan. Turk tilidagi *“yaşlarında”* so‘zi *“chamaliq”* so‘zining tarjimasiga to‘g‘ri kelmasada, *“yaş”* so‘zini ko‘plik ma’nosida qo‘llagani, yozuvchi tasviriga biroz bo‘lsada to‘g‘ri keladi, deb aytishimiz mumkin. Lekin *“O‘n yetti yoshlar chamaliq”* birikmasini *“on yedi yaşlar civarında”* deb o‘girilganda yanada maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Yozuvchi *“kulchalik yuzlik”* ifodasi orqali Zaynabning kulcha kabi *“dumaloq”* yuzli ekanligiga ishora qilgan. Tarjimada esa ushbu tasvir *“tombul yanaklı”* deb, ya’ni *“kulchadek dumaloq”* emas, balki *“do‘mboq yanoqli”* bo‘lib o‘girilgan. Tabiiyki, dumaloq bilan do‘mboq so‘zining o‘rtasida sezilarli farq bor. Bizning ojizona fikrimizcha *“kulcha yuzli”* tasvirini *“ablak yüzlü”* deb tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Endi asardagi O‘zbek oyim portertidagi chizgilarga va buning zamirida qahramon milliy xarakteriga ham to‘xtalib o‘tamiz. Asliyat:

“O‘zbek oyim elli besh yoshlar chamaliq, chala-dumbul tabi’atlik bir xotin bo‘lsa ham, ammo eriga o‘tkirligi bilan mashhur edi.” [1,128]

Shu birgina jumla bilan muallif qahramon portretini va xarakterini yorqin aks ettira olgan. Bu jumlani o‘qishimiz bilan ko‘z o‘ngimizda so‘zi o‘tkir, gapini hammaga, kezi kelganda katta davlat amaldori bo‘lgan turmush o‘rtog‘i Yusufbek Hojiga ham o‘tkaza oladigan o‘zbekning kayvoni ayollaridan biri namoyon bo‘ladi. Endi bu parchani turk tiliga qilingan tarjimasi bilan solishtiramiz:

“Özbek hanım, elli beş yaşları civarında, deli dolu bir kadın olmakla birlikte, kocası üzerinde son derece etkiliydi.” [2, 135]

Tarjimon O‘zbek oyim tasviri tarjimasida ham to‘g‘ri so‘zlarni tanlay bilgan. Masalan: “chala-dumbul” so‘zining o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagi ma’nolari mavjud: 1) don uchun: to‘liq pishmagan, hali qotmagan, sutmi-qatiq bo‘lib qolgan holati; 2) mevalar uchun: ta‘m kirib qolgan, lekin hali yetilib pishmagan holati; yana bu so‘zning ko‘chma ma’nolari ham mavjud bo‘lib, insonlarga nisbatan, aqlsizroq, tentaknamo, devonasifat, shuningdek, hayot tajribasi bo‘lmagan, xom, g‘o‘r kabi ma’nolari ham mavjud. Ushbu ma’nolarni turk mutarjimi chuqur tushungani bois turk tiliga ushbu ma’nolarni bera oluvchi “*deli dolu*” ifodasi bilan o‘g‘irgan va to‘g‘ri yondashgan. “*Eriga o‘tkirligi bilan*” birikmasini esa “*kocası üzerinde son derece etkiliydi*” deb “*o‘tkir*” so‘zini asl ma’noda emas, ko‘chma ma’noda bergan va ushbu so‘z tarjimada qanday ma’no anglatayotganini yaxshi his qilgan. Hozirgi zamonaviy turk tilida chet tillardan kirib kelgan so‘zlar ko‘p. Shu o‘rinda “dominant” so‘zi ham borki, ushbu so‘z ayollarga nisbatan qo‘llanilsa, “eriga hukmdor” , “oilaning qarorlarini o‘zi chiqaradigan” kabi ma’nolarni beradi. Lekin ushbu parcha tarjimasida O‘zbek oyim uchun “dominant” so‘zini berib bo‘lmas edi. Chunki, har bir so‘z tarixiy davrni ham o‘zida mujassam etishi kerak bo‘ladi. Shuning uchun tarjimon aynan bir so‘z bilan emas, balki “*kocasına etkiliydi*” kabi birikma bilan erishni ma’qul

topgan bo'lishi bejiz emas. Agar zamonaviy asar bo'lganida "dominant" yoki shunga o'xshash so'z yoki ibora bilan tasvirlashi mumkin edi.

Endi asardagi personajlardan Rahmat va Homidning portretiga diqqatimizni qaratamiz. **Asliyat:**

"Bu ikki kishining bittasi gavdaga kichik, yuzga to'la, ozroqqina soqol-murtlik, yigirma besh yoshlar chamaliq bir yigit bo'lib, Marg'lonning boylaridan Ziyo shohichi deganning Rahmat otliq o'g'lidir, ikinchisi: uzun bo'ylik, qora cho'tir yuzlik, chag'ir ko'zlik, chuvoq soqol, o'ttiz besh yoshlarda bo'lgan ko'rimsiz bir kishi edi..." [1,7]

Tarjimasi: *"Birisi ufak tefek, tombul yuzl , seyrek sakall , yirmi be  yashlaridaydi ve Mergilan e rafından ipek i Ziya'nın Rahmet adındaki o luydu. Di eri ise uzun boylu, esmer,  opur suratlı,  akır g zl , sivri sakall , otuzbe  yashları civarında tipsiz biriydi..." [2,12]*

Birinchi shaxsga berilgan ta'rifning tarjimasi aynan asliyat bergan ma'noni bera olgan. Tarjimon "gavdaga kichik" ifodasi uchun *ufak tefek* birikmasini, "yuzga to'la" ta'ri i uchun, *tombul yuzl *, "ozroqqina soqol-murtlik" tasviri uchun *seyrek sakall * birikmasini qo'llaydi va to'g'ri yo'l tutadi. Ikkinchi shaxsga to'xtaladigan bo'lsak, ikkinchisi ham asliyatga monand, biroq asl nusxada "chag'ir ko'zlik" birikmasi tarjimada " akır g zl " tarzida tarjima qilingan. Chag'ir ko'z deganda, o'zbek tilida porlab turuvchi, nigohi o'tkir ko'z nazarda tutiladi. Turk tilida * akır g z* deganda "ko'k ko'z" li inson tushuniladi. Bu o'rinda, qahramon portretida muallif nazarda tutgan obraz, tarjimada asl ma'nodan biroz uzoqlashib ketgan holatini ko'rishimiz mumkin. Bu so'z "patlak g zl " birikmasi shaklida o'girilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Asarda asosiy o'rin egallagan qahramonlardan biri bo'lgan Hasanalining portretini yozuvchi shunday chizadi:

"Shu orada hujraga bir chol kirib ul ham mehmonlar bilan so'rashib chiqdi. Bu chol Hasanali otliq bo'lib, oltmish yoshlar chamasi, cho'ziq yuzlik, do'nggiroq peshonalik, sariqqa moyil, to'garak qora ko'zlik, oppoq uzun soqollik edi.

Soqolining oqlig'iga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas va tusida ham uncha o'zgarish yo'q edi." [1,7]

Bu portret tasvirini o'qib turib aytishimiz mumkinki, bu yerda muallif oppoq soqolli nurli bir qariyasini, shu bilan bir qatorda hali hanuz o'zini oldirib qo'ymagan bardam-baquvvat inson siymosini yaratgan.

Turk tiliga tarjimasi:

"Bu arada icheriye yashli bir kishi girdi ve misafirlerle merhabalasti. Adi Hasan Ali'ydi. Altmish yashlarinda, sivri yuzlu, alni kavisli, gozleri yuvarlak ve simsiyah, beyaz tenli ve uzun, bembeyaz sakalli bir kishiydi. Kendisini yashli gosteren tek sey sakaliydi ve esasen oldukca dinchi."[2,12]

Asliyat va turk tiliga qilingan tarjimini solishtiradigan bo'lsak, tarjima juda to'g'ri va o'rinli amalga oshirilgan. Tasvirdagi *oltmish yoshlar chamasi* ifodasi uchun *altmish yashlarinda*, *cho'ziq yuzlik* birikmasi uchun *sivri yuzlu*, *do'ngiroq peshonalik* o'xshatishi uchun *alni kavisli*, *to'garak qora ko'zlik* ifodasi uchun *gozleri yuvarlak ve simsiyah*, *oppoq uzun soqollik* birikmasi uchun *uzun, bembeyaz sakalli*, ayniqsa, Hasananing soqoli oq bo'lishiga qaramasdan, uning hali-hanuz tetik va baquvvatligiga ishora qiluvchi *Soqolining oqlig'iga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas* jumlasini *Kendisini yashli gosteren tek sey sakaliydi* tarzida tarjima qilinishi tarjimonning yutuqlari hisoblanadi.

II Bob. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida yozuvchi uslubining tarjimada berilishi

"Har bir muallifning o'z "tili", ya'ni uslubini qayta yaratish badiiy tarjimaning asosiy, muhim shartlaridan biridir"³⁰, -deb yozadi atoqli tarjimashunos G'aybulla Salomov. Jahon adabiyotida yozuvchi va shoirlar qancha bo'lsa, uslublar ham shuncha. Zero, uslubiy rang-baranglik, shakl va ma'nolar uyg'unligi har bir milliy adabiyotni boshqasidan ajratib turadi. Agar turli-tuman usullar,

³⁰ Salomov G`. Tarjima tashvishlari, Toshkent, 1983. 25-b.

bo‘yoqlar bo‘lmaganda siyqalik ko‘zga tashlanar, bu esa adabiy qashshoqlikka olib kelar edi.

Badiiy tarjimada adib uslubini qayta yaratish uchun so‘zlarning lug‘aviy mazmuniyu tilning grammatik qoidalarini bilishning o‘zi kifoya emas. Buning uchun muallif tilini his etish lozim. Chunki har bir adib o‘z milliy tilidan faqat o‘z uslubiga mos unsurlarni olib, ularni yozayotgan asariga singdiradi. Bu esa, tarjimon oldiga yozuvchi uslubini ham qayta yaratishdek mushkul vazifa qo‘yadi.³¹

2.1. Tarjimon mahoratining maqol va iboralarni o‘girishda namoyon bo‘lishi

Maqollar har bir xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari, moddiy va ma‘naviy turmush tarzining oynasi bo‘lib, unda xalqning o‘ziga xos urf-odatlar, marosimlari bayramlari, afsonalari, psixologiyasi, dunyoqarashi va hokazolar mujassamlashgan. Ularni chuqur tadqiq etish orqali xalqning tili, tarixi va madaniyati haqida qimmatli ma‘lumotlarni qo‘lga kiritish mumkin.

Maqol, matal, idomatik iboralar aniq ma‘nodagi o‘z muqobillariga qaraganda obrazli xarakteri, majoziy ma‘no tashishi bilan ustun turadi.

Tarjimon o‘girayotgan asarining faqatgina asosiy g‘oyasini, muallif uslubinigina emas, balki personajlar tilining milliy xususiyatlarini ham to‘la-to‘kis ochib berishlari kerak. Obrazlar nutqidagi milliy ruhni saqlab qolish tarjimonning eng muhim vazifalaridan biridir. Agar asl nusxadagi barcha milliy belgilar o‘chirib yuborilsa, tarjima qilinayotgan asar o‘z qiyofasini yo‘qotadi, uning obrazlari asar ruhini belgilamaydi. Bunday tarjimondan kitobxon asarning muallifi va voqealari haqida, personajlar va voqea sodir bo‘layotgan joy haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmaydi.

Har qanday asarning o‘ziga xosligi, dastavval, uning mazmunida va asarning tilida ko‘rinadi. Asarning haqiqiy mazmunida ifodalangan milliy o‘ziga xoslikni

³¹ Otaboyev A. Tarjimada muallif uslubini saqlash muammosi. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, №5, 2012

berish tarjimonga unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Asarning tilida ifodalangan milliy ruhni berish esa haqiqatan ham qiyin ish. Chunki, asar qaysi xalqning hayoti bilan chambarchas bog'liq, shu xalqning fikr tarzini aks ettiruvchi idomatik iboralarga, frazeologik birliklarga boy bo'lib, ular o'z navbatida yozuvch uchun asarda xalq tilini ifodalovchi asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Haqiqatan ham ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan, biror hodisani obrazli hamda hajviy ifoda qiladigan maqollar ma'lum bir xalqning turmushini aks ettiradigan hikmatli so'z bo'lib, xalq og'zaki ijodining ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Hikmatli so'z yoki idomatik iboralarni tarjima qilishda xalqning hayotini aks ettirish uchun keltirilgan fikrlarni berish juda muhimdir. Har bir maqolda, biz, o'sha xalqning qiyofasini ko'rar ekanmiz, endi bu qiyofani butun go'zalliklari bilan ikkinchi xalqni tanishtirish xayrli va jiddiy ishdur. Chunki, his-tuyg'ular o'z ifodasini topgan obrazli iboralarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish tarjimondan juda ko'p mehnat talab qiladi. Tarjima qilingan maqol o'z qimmatini yo'qotmaydi, aksincha, boshqa bir xalq uchun katta hayotiy va ma'naviy-tarbiyaviy qimmatga ega bo'ladi. O'girmada mumkin qadar birikmaning aniqroq, asl nusxa ma'nosiga yaqin muqobilini topishga harakat qilish lozim.

Asl nusxaning badiiy to'laqlonligini berish uchun tarjimon maqolning o'ziga xos belgilarini ilg'ab olishi, unga mos keladigan muqobillarini topishi, eng asosiysi, tarjimon maqolning milliy ruhini saqlashi lozim. Shu o'rinda K.Chukovskiyning quyidagi so'zlarini eslash kifoya: "Agar tarjima asari faqat so'zning ma'nosini bersa, u holda uning sehri yo'qolib, san'at asari bo'lmay qoladi. So'z zahirida yotgan obrazlar, bo'yoqlar, tuyg'uni, hissiyotning alangasini ham, aql o'yinini ham, asarning butun go'zalligini – hamma-hammasini olib bergandagina tarjima asarining sehri, san'at asari ekanligi bilinadi".³² Demak, tarjimada so'zlarning zahirida yotgan ma'noni ochib berish katta ahamiyatga ega ekan.

³² Isoqova Sh.I. Badiiy tarjimada milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi. Filol.fan.nom.diss. – T., 2004, B-62

Badiiy asarda har bir yozuvchi o‘z tilida mavjud bo‘lgan maqol, matallarni qo‘llaydi. Bundan maqsad asarning badiiy qimmatini oshirish va boy mazmunni ixcham aniq shaklda berish, obrazlar tilini individuallashtirish hamda tilga sayqal berish va fikrni dalillash orqali ona tilining cheksiz imkoniyatlarini namoyon etishdir.³³

Badiiy tarjimada maqollarning tarjima qilinishi mutarjimdan anchagina mahorat talab qiladi. Tarjimonning bu o‘rinda original variantdagi maqolni o‘zi tarjima qilayotgan tildagi mavjud maqollardan mosini tanlay bilishi uning mahoratidan dalolat beradi. “O‘tkan kunlar” romanida adib qo‘llagan mashhur o‘zbek xalq maqollari va iboralarining turk tiliga tarjimasini tahlil etish orqali tarjimon mahorati va yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklarni aniqlash mumkin.

Asl nusxada:

- *Chin savdogar siz emishsininz,- dedi qutidor, - biz shu yoshqa kelib hali o‘zimizning kattaroq shaharlarimizni ham ko‘rilmadik; Shamayigacha borg‘ansiz.*
- ***Yurgan daryo, o‘lturgan bo‘ryo emish,*** - dedi Akram hoji. [1, 16-17]

Ushbu gapda Abdulla Qodiriy tomonidan qo‘llanilgan “Yurgan daryo, o‘tirgan bo‘yra” maqoli inson doim harakatda bo‘lishi lozimligini, agar inson dunyo kezsa, vaqti-vaqti bilan uzoq- yaqinga safar qilib tursa, uning dunyoqarashi va fikrlash doirasi keng bo‘lishini ko‘zda tutadi.

Turk tiliga tarjimasi:

- *Gerçek tacir sizmişsiniz! – dedi kutudar. – Biz bu yaşımıza geldik hâlâ kendi şehirlerimizin çoğunu görmedik. Siz ise Rus’un Seminalat şehrine bile gitmişsiniz!*

- ***Oturan aslandan gezen tilki yeğdir!*** – dedi Hacı Ekrem. [2,22] (Ma’nosi: “O‘tirgan arslondan yurgan tulki yaxshidir”).

Mazkur parchada tarjimon *Yurgan daryo o‘lturgan bo‘ryo* maqolining ma’nosini to‘g‘ri anglay olgan va tarjimada ham uning aynan turk tilidagi *Oturan aslandan*

³³ Hamidov X. “O‘tkan kunlar romani tarjimalarida maqollarning berilishi” 108-b, Veb-sayt:www.fledu.uz.

gezen tilki yeğdir muqobilini bergan. Bu yerda tarjimon kerakli mazmunni berishga muvaffaq bo'lgan.

Yurgan daryo, o'lturgan bo'ryo emish maqolining turk tiliga tarjimasi xususida X.Hamidov o'zining **“O'tkan kunlar” romani tarjimalarida maqollarning berilishi** maqolasida shunday deydi: “turk tarjimoni vaziyatga ko'ra o'z tilida mashhur bo'lgan maqollardan birini topib qo'ygan. Chunki o'zbek va turk tillari bir til oilasiga mansub. Til egalarining diniy qarashlari, turmush sharoiti bir-biriga yaqin va ularning aksariyati bir xil manbalar asosida yuzaga kelgan bo'lsada, ko'pchilik maqollarda obrazlar farqlanadi³⁴”.

Tahlil qilishda davom etamiz: romanning **“Qudalarni kutib olish”** nomli bobidan parcha keltiramiz: **Asliyat:**

- *Ha, aylanay quda, qars ikki qo'ldan chiqadir, deganlar... Buzoq yaxshi bo'lsa, ikki onani ham emar ekan...*” [1,313]

Turk tiliga tarjimasi:

- *Evet, sevgili dünürüm! İki elin sesi olurmuş derler.. Buzagı iyi olursa iki anadan da süt emermiş!.*” [2,331] (Maqolning so'zma-so'z tarjimasi: Bir qo'lning nimasi bor, ikki qo'lning tovushi bor...Buzoq yaxshi bo'lsa, ikki onadan ham sut emarmish).

Ko'rib turganimizdek, ushbu parchada *Qars ikki qo'ldan chiqadi* maqoli ikki kishi urushib, janjallashib qolsa, ayb faqat unda yo bunda emas, har ikkisida ham bor. Bo'lmasa, bunaqa kelishmovchilik, urish, janjal chiqmasdi, shuningdek, ikki kishining o'zaro ittifoq, ahil bo'lib bir-biriga munosabatda bo'lishi ham har ikki tomonga bog'liq degan ma'nolar nazarda tutilgan.

Turk tiliga tarjimasida esa bu maqol *İki elin sesi olurmuş* tarzida tarjima qilingan. Lekin bu maqolning to'liq varianti *“Bir elin nesi var iki elin sesi var”* shaklida bo'lib, tarjimon bu maqolning faqat ikkinchi qismini qo'llaydi. Ammo

³⁴ Hamidov X. “O'tkan kunlar romani tarjimalarida maqollarning berilishi” 109-b, Veb-sayt:www.fledu.uz.

shuni ta'kidlab aytish kerakki, mazkur maqol ma'nosi o'zbek tilidagi maqolga ziddir. *“Bir elin nesi var iki elin sesi var”* maqoli, inson yolg'iz o'zi katta ishlarni amalga oshira olmaydi. Ko'pchilik bilan hamkorlikda qilingan ishlar o'z samarasini beradi va muammolar ham osongina o'z yechimini topadi degan ma'noni anglatadi. Shunga ko'ra maqol noo'rin qo'llangan bo'lib, bu o'rinda *“Baş başa vermeyince taş yerinden kalkmaz”* maqoli qo'llanilganda, romanda ro'y berayotgan voqea-hodisaning mohiyati kitobxonga to'g'ri yetkazilgan bo'lardi. Endi ikkinchi, *“Buzoq yaxshi bo'lsa ikki onani ham emadi”* maqoliga to'xtaladigan bo'lsak, bu yerda tarjimon maqolni *“Buzağı iyi olursa iki anadan da süt emermiş”* tarzida so'zma-so'z tarjima qilgan holda asliyat ma'nosini saqlab qolishga harakat qilgan va bunga erishgan ham.

Romanda muallif qo'llagan metaforik birikma xarakteridagi ***umr otilgan o'q emish*** maqoli ishtirok etgan. Ammo haqiqatda oradan o'n besh – yigirma yil o'tib, siz ham katta yigit bo'lgansiz, umr otilgan o'q emish jumlasini [1,8-b] turkcha tarjimada juda ishonchli berilgan: *Fakat gerçekte aradan on beş yirmi yıl geçti ve kocaman bir delikanlı olmuştunuz. Ömür, su gibi akıp gidiyor* [5, s. 19]. Unda o'zbekcha maqol ***Ömür, su gibi akıp gidiyor*** shaklida o'xshataish yo'li bilan o'girilgan. O'zbekcha maqolda obraz “otilgan o'q” bo'lsa, turkchada – “oqar suv”dir.

Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanidagi maqollarning turk tiliga tarjimasi xususida X. Hamidov fikrlariga diqqatimizni qaratsak:

“Romanda Abdulla Qodiriy qo'llagan maqollarning ko'pchiligida o'zbek xalqining mentaliteti aks etgan va ularning muqobillari boshqa tillarda deyarli uchramaydi. Masalan: *“Yov qochsa, botir ko'payar qabilida shu choqqacha lom demay o'tirgan shahar a'yonlari ham masalani anglab, so'zga aralasha ketdilar* (1, 101-b.) jumlasida maqol juda o'rinli qo'llangan. Turkcha tarjimaga e'tibor bersak, jumla: *“Düşman kaçınca kahraman çoğalır!” kabilinden şu ana kadar ağzını açmadan oturan devlet erkânı da meseleyi anlamışlardı* (5, s. 106) deb

o‘girilgan (*“Düşman kaçınca kahraman çoğalır!”*), faqat, asliyat jumlasining “so‘zga aralasha ketdilar” birikmasi turkcha tarjimada tushirib qoldirilgan.

Yana bir o‘zbekcha maqol: **“Yegan og‘iz uyalar”**. *“Yegan og‘iz uyalar” qabilidan O‘zbek oyim ham muomalani qudalarcha qildi* (1, 135-b.). Ammo turkcha tarjimada maqolning mazmuni u qadar anglashilmagan: *Yiyen ağız utanır kabilinden Özbek Hanım da bir dünür gibi davranarak...* . Chunki turkchada bunday maqol uchramaydi. Faqat o‘ta e‘tiborli kitobxongina maqolning mazmunini chaqishi mumkin.

Itidan bo‘lgan qurbonliqqa yaramas (1,353-b.) maqoli romanning turkcha tarjimasida ham *İt eniğinden kurbanlık olmaz!* (5, s. 382) tarzida so‘zma so‘z o‘girilgan, ammo, shunga qaramay, tarjima ishonchli chiqqan. Uni o‘qigan kitobxon ma‘noni “chaqish ” uchun uzoq uylanmaydi.

Turk tiliga ko‘p qo‘llanadigan *Başa gelen çekilir* (so‘zma-so‘z: “Boshga tushgan tortilar”) shaklidagi aniq muqobilga ega bo‘lgan **“Boshga tushkanni ko‘z ko‘rar”** (1, 158-b.) maqolini turk tarjimoni o‘zbekchdan aniq tarjima qilgan: *Başa düşeni göz görürmüş!* (5, s. 166). (Boshga tushkanni ko‘z ko‘rar emish).

Romandagi *Jaholat kelsa, aql qochadir, qizim, - deb koyidi* (1, 264-b.) gapi turkchaga *Cehalet basınca akıl çıkar gidermiş, kızım – diye cevap verdi* (5, s. 279) shaklida o‘girilgan. Xolbuki, maqolning turk tilida *“Öfkeyle kalkan zararlar oturur”* (“Jahl bilan o‘rnidan turgan zarar bilan o‘tirar”) kabi muqobili ham bor edi. Bunda tarjimon o‘z tilining boy maqol zahirasidan foydalanmagan.

“O‘tkan kunlar” ning bir kichik bobi *“Oy etak bilan yopilmas”* (1, 293-b.) deb nomlangan. Turk tarjimon esa kitobdagi kichik boblarni, jumladan, “Oy etak bilan yopilmas” bobi nomini ham turkchga o‘girmagan.”

“Najot istab Toshkandga” nomli bobidan yana bir parcha keltirib o‘tamiz:

Asliyat:

*“Hasanali kunlarini tomoqsiz, tunlarini uyqusiz kechira boshladi: Otabeklar nega qamaldilar, qanday gunohlari bor ekan? Otabekning ipidan ninasiga bo‘lgan sirri unga ma’lum emasmi? – Bu jihat bilan o‘ylag‘anda “Qutidorlarning birar ishlari balosiga qoldi-yov”, deb fikr qilar edi. Bu falokatni umumiyroq tekshirib boshlasa, xalq og‘zida maqol o‘rnida iste’mol qiling‘an **“Ajalingning yetishi qilg‘an yozig‘ingdan emas – bek akangning qonsirashi”** degan gap ko‘ngliga tushar edida, beixtiyor uflab yuborar edi. ” [1,77]*

Turk tiliga tarjimasi:

*“Artık uyku ve istirahat, dur durak ona haram olmuştu. “Atabeyler neden hapse atıldı? Onu ne suçu varmış? İğneden ipliğe onun her şeyi kendisine malum değil miydi?” diye düşünüyor, işin içinden çıkmayınca “Tabii ya!” diyordu. – “Mirza Kerimler yüzünden hapse atıldı!” bu olayın iç yüzünü araştırmak istediği zaman da, halk arasında yaygın olan **“insanın başına ne gelirse beyden paşadan gelir!”** sözü aklına düşüyor, uflayıp puflamaya başlıyordu...” [2,84] (Ma’nosi: “Insonning boshiga nima kelsa, bekdan, podshodan keladi”).*

Ushbu parchada ishtirok etgan, xalq og‘zida maqol darajasiga chiqib olgan **“Ajalingning yetishi qilg‘an yozig‘ingdan emas – bek akangning qonsirashi”** gapi orqali o‘sha paytda xonlar va amaldorlarning zulmi qay darajada oshib ketganligi-yu, oddiy xalqning ularga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatish muallifning bosh maqsadi edi. Tarjimon muallifning fikrini o‘qiy olgan va tarjimada aynan turkchaga **“İnsanın başına ne gelirse beyden paşadan gelir”** tarzida to‘g‘ri tarjima qilgan.

Tahlilni davom ettiramiz: Asarning **“Kiroyi kuyaving shundog‘ bo‘lsa”** nomli bobidan To‘ybeka va Kumush suhbatidan parcha: **Asliyat:**

- *Koshki edi tegalsam,- dedi To'ybeka, - men uning bir tukiga ham arzimayman. Ammo sen bo'lsang uning bilan tenglashar eding. “Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan”. Xa-xa-xa!...*” [1,32]

Ushbu gapda Abdulla Qodiriy tomonidan qo'llanilgan “*Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan*” maqoli har kim o'zining teng-to'shi bilan muloqotda bo'lishi, turmush qurishi, do'stlashishi maqsadga muvofiqligi nazarda tutiladi.

Turk tiliga tarjimasi:

- *Keşke ama!- dedi Toybike. – Ben onun saçının bir kılı bile olamam. Ama sen tam onun dengisin. Ne demişler? Davul dengiyle çalarmış! Ha-ha-ha!.*” [2,38]

Bu o'rinda ham tarjimonning mahoratiga qoyil qolish kerak. U *Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan* o'zbek maqolining ma'nosini, qo'llanilish o'rnini anglab yetgan va tarjimada ham bu maqolning turk tilidagi ekvivalenti *Davul dengiyle çalarmış* maqolidan o'z o'rnida foydalangan. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ushbu maqolning turkcha “*Davul dengi dengine çalar*” varianti ham bor.

Yana bir romandagi Kumush Otabekka yozgan maktubida qo'llagan o'zbek maqoli:

“Tashlandiqlikning so'ng o'tinchi qilib sizdan shuni so'rayman: uchunchi yor topqanda ikkinchi bechoraga ham shunday uyatsizlik qilinmasa edi. Bu tilagim uchun ajablanmangiz, chunki, “pichoqni o'zingga ur, og'rimasa o'zgaga sol”, deydirilar.” [1,167]

Bu maqol birovga biror bir yomonlik qilishdan avval uning o'rniga o'zini qo'yib ko'rishi kerakligi, boshqalarga zinhor yomonlik sog'inmasligi lozim bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Ushbu jumla va maqol turk tiliga juda ishonchli tarjima qilingan:

“Bir kenara attığınız bir kişi olarak sizden son defa şunu istiyorum: Üçüncü bir yar bulduğunuzda ikincisine bari böyle utanmazlık yapmayın. Bu dileğime şaşmayın. Çünkü “İğneyi kendine batır, ağrımazsa çuvaldızı başkasına dürt” derler.” [2,177]

O'zbek tilidagi *pichoqni o'zingga ur, og'rimasa o'zgaga sol* maqolining turk tilidagi aynan muqobili ***İğneyi kendine batır, ağrımazsa çuvaldızı başkasına dürt*** (so'zma-so'z tarjiması: "İgnani o'zingga botir, og'rimasa, juvaldizni boshqasiga turt") maqolidir. Bu maqolning yana ***İğneyi kendiye, çuvaldızı başkasına batır*** (so'zma-so'z tarjiması: "İgnani o'zingga botir, juvoldizni boshqasiga") shakli ham mavjud. Ya'ni o'zingga ravo ko'rmagan narsani o'zgaga ham ravo ko'rma qabilidagi ma'noni beradi. Bu xususda N. Azzamova o'zining "O'tkan kunlar romanining turkcha tarjimasida maqollarning berilishi masalasi" maqolasida shunday deydi: "Tarjimon qo'llagan ushbu maqol Abdulla Qodiriy bergan maqolning ayni turk tilidagi ekvivalentidir. Shuni ta'kidlash joizki, tarjimon qo'llagan muqobili ham ma'no jihatidan to'liq monanddir. Voqea maqsadi saqlab qolingan."

Asl nusxa: *"Sut bilan kirgan, jon bilan chiqar deganlaridek..."*

Tarjiması: *"Can çıkmayınca huy çıkmaz misali..."*

"Sut bilan kirgan, jon bilan chiqar" maqoli kishi o'ziga xos xarakter bilan dunyoga keladi va hayoti davomida hech ham o'zgarmaydi. Ushbu maqolning aynan ekvivalenti mavjud bo'lib, tarjimon ana shu muqobil variantini qo'llaydi. Bundan xulosa shuki, tarjima qilinayotgan tilda ham shaklan, ham mazmunan muvofiq keladigan ekvivalenti topiladi.

Asl nusxa: *"Egasini siylagan itiga suyak tashlar, qabilidan qizlari tufayli qutidor va Oftob oyimlar ham juda yaxshi izzat ko'rar edilar."*

Tarjiması: ***"Sahibini seven itine kemik verir kabilinden kızları sebebiyle sandıkçı Mirza ve Aftab ayım da el üstünde tutuluyor..."***

Mazkur *"Egasini siylagan itiga suyak tashlar"* maqolining turk tilida muqobil variant mavjud bo'lmaganligi sababli tarjimon ushbu maqolni hijjalab tarjima qiladi.

Tarjima qilinayotgan idiomatik birliklar faqatgina o'sha tilgagina xos bo'lib, boshqa tilda aynan ekvivalenti bo'lmagan taqdirda ham ma'no jihatidan yaqin bo'lgan birliklar qo'llaniladi. Ba'zan umuman muqobil variant bo'lmagan hollarda hijjalab tarjima qilish ham qo'l keladi. Asl nusxadagi maqolni va unda mujassamlangan milliy koloritni, tarjimani o'quvchi kitobxonga to'g'ri yetkazish uchun maqolning leksik-sintaktik va morfologik tarkibini saqlagan holda tarjima qilish lozimdir. Turk tarjimoni Ahsan Batur yuqorida ta'kidlangan jihatlarni inobatga olgan holda mazkur maqolni juda chiroyli tarjima qiladi.

Buyuk yozuvchi Abdulla Qodiriy maqollarni mohirona va o'z o'rnida qo'llaydiki, o'z-o'zidan kitobxonni sehlrab qo'yadi. Mana shunga o'xshash nozik detallarni tarjima qilish yoki tarjima qilinayotgan tildagi muqobil variantini topib o'z o'rnida qo'llash mutarjimga juda katta ma'suliyat yuklaydi.

Xuddi shuningdek, maqol singari iboralarning ham tarjimada berishga doir tarjimon oldida bir qancha muammolar tug'ilishi mumkin. Ushbu roman tarjimasida iboralarning berilishiga doir bir nechta misollarni ham ko'rib o'tsak. Asarda Otabek Kumushdan olgan maktubini o'qib bo'lgan keyingi holati: **Asliyat:**

“Otabek suyunchi ichiga sig'masliq, o'zini yo'qotib qo'yg'an holda iljayar edi”. [1,302]

Tarjimasi: *“Atabey mektubu okuyunca iç içine sığmaz bir halde hafifçe gülümsedi...”[2,320]*

Bu yerda Otabekning Kumush yozgan maktubni o'qigandan keyingi holati ikkita ibora bilan, ya'nikim *“suyunchi ichiga sig'masliq”, “o'zini yo'qotib qo'yg'an”* iboralari orqali muallif tomonidan juda chiroyli tasvirlab berilgan. Bu satrlarni o'qigan kitobxon sog'inchdan g'amnok Otabekning qalbida umid uchqunlarining uyg'onishi-yu, va bu umid uchquni bergan alangadan Otabekning o'zini yo'qotib qo'ygan holatini tushunib oladilar. Endi tarjimaga to'xtaladigan bo'lsak, bu yerda ikki ibora o'rnida faqat bitta ibora qo'llanilgan. Ya'ni *“sevinchi ichiga sig'maslik”* iborasi *“iç içine sığmaz”* shaklida to'g'ri tarjima qilingan, lekin

tarjimon ikkinchi “o‘zini yo‘qotib qo‘ymoq” iborasini tushirib qoldirgan va o‘sha paytdagi Otabekning holatini to‘la aks ettira olmagan. Bu o‘rinda tarjimon “*kendinden geçmek*” iborasidan foydalansa, tarjima yanada go‘zal va aniqroq chiqar edi.

Yana bir o‘rnak: **Asliyat:**

“O‘n oltinchi kun mehmon **oyog‘i tovsillanib**, O‘zbek oyim Sorabek oyimga o‘zlarining borishlaridan xabar yubordi va Hasanaliga aravani qo‘shmoqqa buyurdi. O‘rda oyimlarining turmushlarini ko‘rmagani uchun Kumushning ham ular bilan birga borg‘usi keldi va ertalab choy ustida Zaynab tilga kelturib, “Zaynabingiz ham boradimi” deb so‘rag‘anida, O‘zbek oyim: “Zaynab bir martaba borish bo‘lsa borg‘an”, deb javob berdi.

- Men-chi?

- Sen ham bormaysan

Kumushning ma‘yuslanib qilg‘an sukutidan keyin, O‘zbek oyim mundog‘ izoh berib chiqdi:

- Sen Toshkanddagi Yusufbek hojini kelini bo‘lasan, bolam! Chorlamag‘an joyga borish uchun sening **kafshing ko‘chada qolg‘an emas**, -dedi.

...O‘zbek oyim yo‘lakkacha kuzatib chiqqan Kumush bilan Zaynabka qarab arava yonidan kuldi:

- Ikki kundash uyni xoli topib tag‘in yulishmanglar! Oybodoq, tag‘in sen kundashlardan xabarsiz qolma!

Oftob oyim aravaga minar ekan:

- Xudoy saqlasin, oyi! Shukur, ikkalasining ham **aql-hushi boshida!** – dedi. ”

[1, 336-337]

Tarjimasi:

“On altıncı gün misafirlerin **ayağı** biraz **kesilince** Özbek hanım, Sarabey hanıma haber göndererek misafirliğe geleceklerini bildirdi. Hasan Ali’ye arabayı hazırlamasını tenbih etti. Saray hanımlarının nasıl bir yerde kaldıklarını görmeyi

çok isteyen Gümüş de onlarla birlikte gelmek istiyordu. Sabahleyin kahvaltı yapılırken Zeynep'i bahane ederek "Zeynep'te gelecek mi?" diye sordu. Özbek hanım "Zeynep'in bir defa gitmesi gerekiyordu, gitti!" diye kestirip atınca:

- *Ya ben? - diye sordu.*
- *Sen de gelmiyorsun.*

Gümüş'ün üzüldüğünü, sessizliğe gömüldüğünü gören Özbek hanım, izahat yapmak zorunda kaldı:

- *Yavrum! Sen bugüne bugün Taşkent'li Hacı Yusufbey'in gelinisin! **Papucunun teki sokağa mı düştü** ki çağrılmadın yere gidesin!*

... Özbek hanım kendilerini kapıya kadar geçiren Gümüş'le Zeynep'e gülerek baktı:

- *İki kuma evi ıssız bulup birbirinize girmeyin! - dedi. – Aybadak! Sen gözlerini bunlardan ayırma!*

Aftab Ayım arabaya binerken:

- *Allah korusun, hanım! Şükür ikisinin de **aklı başında!**-dedi."* [2,356-357]

Bu dialogda "oyog'i tovsillanib" (oyog'i uzildi) "kafshing ko'chada qolg'an emas" (kovushing ko'chada qolgan emas), "aql-hushi boshida" kabi iboralar "ayağı kesilince", "papucunun teki sokağa mı düştü", "aklı başında" tarzida juda chiroyli tarjima qilingan. Bu yerdagi "oyog'i tovsillanib" iborasi qatnovi siyraklashib oyog'i uzildi, ya'ni kelmas bo'ldi (masalan: mehmonlarning oyog'i uzildi) ma'nosini anglatib, tarjimon buni ustalik bilan "ayağı kesilmek" iborasi bilan, o'z qadr-qiymatingni bil mazmunini anglatuvchi "kovushing ko'chada qolgan emas" iborasini "papucunun teki sokağa mı düştü", "aql-hushi boshida" iborasini "aklı başında" shaklida tarjima qilganligi tarjimonning katta yutug'idir, bu o'rinda tarjima xuddi asliyatdagi kabi ifoda etilgan.

Ba'zi o'rinlarda asliyatda berilgan biror bir jumla yoki so'zni tarjimada ibora shaklida berish o'rinli bo'ladi. Masalan, romanning "**Xon qiziga loyiq bir yigit**"

nomli bobida Ziyο shohichining uyidagi mehmondorchilikda Homidning quyidagi soʻzlariga diqqatimizni qaratamiz:

- “*Sotqi bek ketsin, Aziz bachcha deng, - dedi Homid va Akram hojiga qarab kuldi. – Yaqindagʻina Musulmon choʻloqning bazimi shu Aziz bachcha bilan **qizir edi**, - dedi, ulugʻ bir narsa kashf etgandek magʻrur, majlisga qarab chiqdi.*” [1,14]

Tarjimasi:

- “*Sakbeyʻe kurban olsun! Tıfıl aziz deyin!- dedi Hamid, Hacı Ekremʻe bakıp gülerək. – Şu yakınlarə kadar çolak Müsülmanʻın bezmi tıfıl Aziz ile iyi **uyuşuyordu!** – diye ilave etti ve sanki önemli bir şey keşfetmiş gibi mağrur bir edâ ile mecliste bulunanlara baktı...*”[2,20]

Bu yerda tarjima yaxshi qilingan, biroq muallif “qizdirmoq” soʻzini bazmga koʻrk bagʻishlovchi, zavq beruvchi maʼnosida qoʻllagani bois, bu soʻzni tarjimon “uyuşuyordu” soʻzi bilan emas, balki “**renk katiyordu**” iborasi bilan tarjima qilganida tarjima yana ham chiroyli va mukammalroq boʻlar edi.

Tarjimashunos olim Gʻ. Salomov shunday deb yozadi: “Koʻchma maʼnoli birikmalarni boshqa tilga tarjima qilganda har qanday holda ham ularning obrazli asoslari aynan muvofiq keladigan bir variant bilangina tarjima qilish baʼzan sunʼiylikka olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, har qanday ham muqarrar ravishda bunday birikmalarni asar tarjima qilinayotgan tildagi boshqa muqobil variantlar bilan koʻr-koʻrona almashtiraverish ham uslub chalkashligiga, tarjima tilining chegaralanib, qashshoq boʻlib qolishiga, bir xil qolipdagi siyqasi chiqqan maqol va idiomalarning uzluksiz takrorlanishiga olib keladi”.³⁵ Shu tufayli xalq qoʻllanadigan ixcham, pishiq va chuqur mazmunli maqol va iboralarni tarjima tilida berish ijodkorlar uchun qiyinchilik tugʻdiradi.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilib aytadigan boʻlsak, tarjimon biron-bir asarni tarjima qilar ekan, u nafaqat asliyat tilini mukammal bilishi kerak, balki oʻsha xalqning hayoti, urf-odatları, milliy madaniyati bilan yaxshi tanish boʻlmogʻi lozim. Har bir xalqning ulkan xazinası hisoblangan maqol va iboralar ham oʻsha

³⁵Hamidov X. “Oʻtkan kunlar romani tarjimalarida maqollarning berilishi” 112-b, Veb-sayt:www.fledu.uz.

xalqning madaniyatini, milliy o‘zligini o‘zida namoyon etuvchi vositalardan biridir. Abdulla Qodiriy “O‘tkan Kunlar” romanida o‘zbek xalqining bu ulkan xazinasidan unumli va o‘rinli foydalangan va tarjimon Ahsan Batur “O‘tkan kunlar” romanidagi maqol va iboralarni tarjima qilishda ikki xil usul, ya’ni o‘zbek tilidagi maqolni turk tilidagi mavjud ekvivalenti bilan, turkcha muqobili bo‘lmaganlarini esa so‘zma-so‘z tarjima qilish orqali asardagi ma’no va mazmunni saqlab qolishga harakat qilgan.

2.2. Asarda aks ettirilgan milliy o‘ziga xoslik va tarixiy davrni qayta yaratishda tarjimon mahorati

Tarixiy asarlarda ijtimoiy-tarixiy harakatdagi xalq hayotining ma’lum bir davri ifodalanadi. Bunday asarda qo‘llangan til vositalarining katta qismi vaqt o‘tishi bilan turli o‘zgarishlarga uchragan, bir qator so‘zlar eskirib, iste’moldan chiqib, unutilib ketgan, bir guruh so‘zlarning ma’no ko‘lami kengaygan, yana boshqalarining esa aksincha chegaralanib, toraygan. Bir so‘z bilan aytganda, asar yaratilgan davr tilida qanday qo‘llanishda bo‘lgan bo‘lsa, shunday saqlanib qolgan til vositalarini topish mushkul. Tilda doimiy, turg‘un hamda vaqtinchalik, o‘tkinchi, o‘zgaruvchan til hodisalari ham borki, tarjimon bu o‘rinda tarjimasiga kirishgan asar yaratilgan o‘tmishni chuqurroq o‘rganishi, asar muallifining uslubini, dunyoqarashini bilishi, uning o‘zi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi zarur. Shuningdek, tarixiy asarning shu davrga qadar boshqa tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan barcha tarjimalarini ham yaxshilab o‘rganib chiqishi, ushbu yo‘nalishdagi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo‘lishi kerak. Bu kabi omillar tarixiy asarlar mazmunini chuqurroq anglashga, tarjima jarayonida uchrashi mumkin bo‘lgan mushkullikning yechimini topishda hamda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatoliklarning oldini olishga yordam beradi. Odatda, to‘g‘ri anglab, tushunilgan narsa va hodisagina tarjimada to‘g‘ri aks etishi mumkin.

Tarixiy asar tarjimasida mutarjimlar barcha til vositalarini zamonaviy til orqali o‘gira olmasligiga sabab asliyatning “qadimiyligi” bo‘lsa, qadimiy til bilan

o'g'irishni inkor etuvchi sabab, uning zamonaga xizmat qilishi zarurligidadir. Tarixiy asar tarjimasi ikki davrga taalluqlidir. Ya'ni, u zamonaviy tilda yaratilishi hamda o'zida tarixiy davr ruhini aks ettirishi kerak.

Bir qator tarjimashunos olimlar (G'. Salomov, N. Otajonov, A. Fedorov, O. Semenova, M. Ledere va boshqalar) tarixiy-arxaik leksikani muqobil tarjima qilish hamda asliyatda aks etgan tarixiy davr ruhini kitobxonga to'g'ri yetkazishda tarjimon quyidagi bir necha omillarni hisobga olishi kerak deb, hisoblaydilar:

- a) mutarjim eng avvalo asliyat tilining ham diaxronik, ham sinxronik qatlamini bilishi, uning serjiloligini, serqirraligini his qilishi, tasviriy vositalarning eng nozik va murakkab tomonlarini tushuna olishi;
- b) asliyatda tasvirlangan xalq turmush tarzining o'ziga xos tomonlari, diniy e'tiqodlari, an'analari urf-odatlarini, udumlari, marosimlari, etnografik qiyofasi haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- c) klassik asarda tasvirlangan tarixiy davr ruhi, tarixiy shaxslar, unda tilga olingan xalq tarixining asar yaratilgan davrga oid turmush tarzi va ular haqidagi ilmiy manbalar bilan tanish bo'lishi kerak.

Tarixiy voqealar yoki tarixiy shaxslar haqida yaratilgan asarlarning badiiy-uslubiy xususiyatlari muallif yashagan davrga qarab farqlanadi.

Bu xildagi ijod namunalari yaratilgan paytida tarixiy asar hisoblanmasligi mumkin, lekin muayyan davr o'tishi davomida shu janrga xos asar sifatida baholanishi tabiiy. Masalan, "Boburnoma", "Shayboniynoma" asarlari shular jumlasidandir. Ularda personajlar nutqidan tortib bayon tarziga, tasviriy vositalardan badiiy san'atiga, umuman, asarning butun tashqi va ichki birligida, lisoniy ifodasining leksik-grammatik qatlamida tarixiylik, tarixiy davr ruhi namoyon bo'ladi.

Zamondosh adiblar qalamiga mansub tarixiy asarlarni o'g'irish birmuncha yengil. Bu yengillik tarjimonga qo'l keluvchi – arxaik so'zlarning izohlanishida, yozuvchining tushuntirishi va sharhlarida, bayon uslubining muallifga zamondosh

mutarjim uchun ancha tushunarli va yaqin ekanligida ko‘rinadi. Binobarin, davr ruhini tarjimada qayta tiklash “...davr ruhi, davr nafasi, davrning adabiy tili tushunchasi bilan bog‘liq yetakchi mayllarini aks ettirish jiddiy, murakkab muammodir”.³⁶

Asliyat yaratilgan davr tarjima amalga oshirilgan paytdan, odatda, ma‘lum darajada farq qiladi. Shuning uchun asliyat ruhini to‘la-to‘kis qayta yaratish mas‘uliyati tarjimondan zarur til vositalarini to‘g‘ri tanlash yo‘li bilan asliyat vujudga kelgan davr xususiyatini qayta yaratishni talab etadi. Shu bilan birga, tarjima amalga oshirilgan davr tili bir qadar kitobxonga tushunarli bo‘lishi lozim. Chunki tarjimon asarni o‘z davri kitobxoni mutoalasi uchun o‘giradi. Bir so‘z bilan aytganda, tarjimada shunday lisoniy vositalardan foydalanish kerakki, hosil bo‘lgan matn kitobxonga yaxshi tushunarli bo‘lsin va shu bilan birga, asarda tasvirlangan davr uning ko‘z oldida jonlanib tursin.

Har bir asar o‘z zamoni va o‘z makoniga ega. Tarjimada ana shu zamon va makonning asliyatda qoldirgan izini o‘zga kitobxonga yetkazish, tarjimonga katta mas‘uliyat yuklaydi. Tarjimon zamondoshimiz, demak, bugungi kun o‘quvchisi. U nafaqat o‘quvchi, balki asl nusxaning badiiy tomonlarini tahlil qila oladigan tanqidchi hamda asarni o‘z tilida qayta tiklay oladigan olim va yozuvchi hamdir.

Mazkur bobda romanda tarixiylikni belgilovchi tarixiy-arxaik tushunchalarda ko‘p uchraydigan unvon, kasb-korlarga tegishli so‘zlar va realiyalar (milliy xos so‘zlar) tarjimasini tahlil qilishni asosiy maqsad qilib oldik. Zero, bularni tarjimada to‘liq aks ettirish muhim ahamiyatga ega.

Asliyat: “*Musulmonqul Normuhammad qushbegiga besh ming sipoh qo‘shib, Toshkand ustiga jo‘natqan!*” [1,33]

Turk tiliga qilingan tarjimasi: “*Müsülmankul, kuşbeyi Narmuhammed’i beş bin kişilik bir orduyla Taşkent üzerine salmış!*” [2,40]

³⁶ Isoqova Sh.I. Badiiy tarjimada milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi. Filol.fan.nom.diss. – T., 2004. B. 71-72.

Bizga ma'lumki, qushbegi unvoni amir va xonlar saroyida bosh vazir yoki huquqi vazirga teng bo'lgan yirik amaldor, hokim hisoblangan. Fikrimizcha, tarjimon tarjima jarayonida asar milliyligini, ham tarixiyligini asrash uchun **qushbegi** so'zini tarjima qilmasdan **kuşbeyi** tarzida bergan, shu bilan bir qatorda turk kitobxonlari uchun tushunarli bo'lishi uchun taglama asosida qushbegi so'zining ma'nosini keltirib o'tgan.

Tahlilni davom ettirgan holda asliyatdan yana bir misol keltirib o'tamiz:

*“Muhammad Rajab **qo'rboshining** uyidan ikki-uch qaytalab kishi kelabergandan keyin, Yusufbek hoji ilojsiz qolib borishg'a majbur bo'ldi.”* [1, 275]

Bu parcha turk tiliga quyidagicha o'girilgan:

*“Hacı Yusufbey, **korbaşı** Muhammed Receb tarafından iki üç kişi gelince çaresiz onlarla birlikte gitmeye mecbur kaldı.”* [2, 289]

Bu parchada tarixiy-arxaik so'z hisoblangan **qo'rboshi** so'zi qo'llanilgan bo'lib, bu so'zning ma'nolari “O'zbek tilining izohli lug'ati”da quyidagicha berilgan: 1) o'rta asrlarda O'rta Osiyo xonliklari va ayrim sharq davlatlarida: dastlab shaharni tunda qo'riqlovchi mirshab; so'ngra qurol-yarog' ombori (qo'r) mutasaddisi hamda qurol-aslaha, turli yarog'lar va to'p yasash korxonalari (qo'rxona) boshlig'i; 2) Turkiston o'lkasida Oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan davrda mahalliy politsiya boshlig'i; mirshablarning boshlig'i.

Qo'rboshi so'zi turk tiliga **korbaşı** tarzida o'girilgan. Balki, tarjimon bu o'rinda tarixiylikni saqlab qolish uchun bu so'zni qanday bo'lsa, shundayligicha bergandir. Bu yaxshi albatta, lekin qabul qiluvchi muhitning ham imkoniyatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Tahlilimiz ostidagi bu so'z turk kitobxoniga tushunarli bo'lmasligi mumkin. Shu sababli tarjimon bu o'rinda taglama asosida qo'rboshi so'zining ma'nosini berib o'tganda tarjima yana ham mukammalroq chiqqan bo'lardi.

Endi tarixiy-arxaik va kasb-korga tegishli hisoblanmish **dodxoh** soʻzi va uning turk tiliga qilingan tarjimasiga diqqatimizni qaratamiz:

*“Uning orqasidan qora otgʻa otlanib, zangori movutdan **uqalik toʻn** kiygan, kumush kamarning oʻng tomonigʻa qilich, soʻligʻa toʻfangcha qistirgʻan, boshigʻa barra popoq kiyib, jin yalagʻan deganlaridek qoshsiz, qoramtil yuzlik, ikki chakagining ustida biroz, iyagiga biroz siyrak, koʻrimsiz qora soqolliq, koʻzlari ichiga botigʻroq, ammo qon quyilgʻansumon bir kishi kelar edi. Bu kishi Azizbekning amri lashkari va oʻng qoʻli boʻlgʻan Rayimbek **dodxoh** edi.”* [1,83]

Yuqorida keltirib oʻtilgan parcha turk tiliga quyidagicha oʻgirilgan:

*“Arkasından siyah ata binmiş, yeşilimsi **çuha şeritli don** giymiş, gümüş kemerinin sağ tarafına kılıç, sol tarafına kubur bağlamış, başına papak geçirmiş, cin yalamış gibi kaşsız, esmer çehreli şakakları az, çene tarafı ise daha az şekilde uzun sakallı, kanlı gözleri yuvalarına çekilmiş bir kişi geliyordu. Azizbey’in baş kamutani ve sağ kolu olarak bilinen **vezir-ı azam** Rayimbey’den başkası değildi bu!”* [2, 88]

Koʻrib turganimizdek, **dodxoh** soʻzi turk tiliga **vezir-ı azam** tarzida oʻgirilgan. Lekin bu oʻrinda tarjimon xatoga yoʻl qoʻygan, chunki vazir-i azam bilan dodxoh lavozimlari bir-biridan tubdan farq qilib, ularning bajargan vazifalari ham alohidadir.

Maʼlumki, tariximizda **dodxoh** nomli davlat ahamiyatiga molik kasb-kor mavjud boʻlib, bu soʻzning tarixiy ildizlariga nazar tashlaydigan boʻlsak, bu soʻz fors tilidan olingan boʻlib, asl maʼnosi daʼvogʻar, odillik istovchidir. Lugʻatlarda dodxoh soʻzining yana bir qancha maʼnolarini koʻrishimiz mumkin: 1. Adolat talab etuvchi, adolat istovchi, daʼvogʻar; 2. Buxoro xonligida adolat, haq-huquq istovchilardan amir nomiga ariza qabul qiluvchi va uning javobini arzhilarga yetkazuvchi lavozimli kishi; 3. Qoʻqon xonligida qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor; 4. Oʻtmishda Fargʻona vodiysi va Toshkentda mingboshi va boshqa baʼzi amaldorlarni ulugʻlash uchun ishlatilgan soʻz.

Vazir esa Usmoniylar imperiyasida hokim, vali kabi yuksak martabalarda ishlagan va pasha unvoniga ega bo'lgan kishilarga berilgan nom bo'lib, Vazir-i azam so'zi esa, Usmoniylar imperiyasida bosh vazir lavozimidagi kishiga berilgan nomdir. Bundan ko'rinadiki, asliyatdagi dodxoh va tarjima-dagi vezir-i azam so'zlarining ma'nosi ham va shu kasbda faoliyat yuritgan mansabdor shaxslarning bajargan vazifalari ham bir-biridan tubdan farq qilgan. Bu o'rinda tarjimon dodxoh so'zini shundayligicha, tarjima qilmasdan taglama asosida uning ma'nosini keltirib o'tishi yoki shu so'z bilan ayni ma'noda va vazifada keladigan muqobil variantini topib o'g'irganda to'g'ri yo'l tutgan bo'lardi.'

O'rni kelganda, ushbu parchada milliylikni aks ettirgan ayrim detallarga, ya'ni **uqalik to'n** birikmasiga ham diqqatimizni qaratsak: biz bilamizki, to'n o'zbek xalqining milliy liboslaridan biri bo'lib, u oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki kiyim hisoblanadi va bu so'z tilimizda **chopon** deb ham yuritiladi. Bu libosning bir qancha turlari mavjud, masalan, *kimxob to'n*, *zarbof to'n*, *uqalik to'n* va boshqalar. Keltirilgan mazkur parchada **uqalik to'n** birikmasi qo'llanilgan. **Uqa** - bezak uchun gazmol buyumlar, kiyim-kechak va shu kabi narsalar chetiga tikib, qadab qo'yiladigan uzun ensiz mato bo'lib, **uqalik to'n** shu bezak matosi bilan ishlov berib bezatilgan to'ndir. Turk tiliga mazkur birikma **çuha şeritli don** tarzida tarjima qilingan. Tarjimon uqa so'zini berish uchun **çuha şeritli** birikmasidan foydalangan. Turk tilining izohli lug'atida **çuha** so'zi tuksiz, ingichka, qattiq va pishiq qilib to'qilgan yungli mato, **şerit** so'zi esa ensiz, uzun parcha va asosan, to'qilgan yoki mato parchasi deb berilgan. Umuman olganda **uqali** so'zini tarjimon **çuha şeritli** shaklda ma'lum bir ma'noda to'g'ri tarjima qilgan. Lekin mutarjimning ba'zi kamchiliklari o'zbek milliy kiyimi bo'lgan **to'nni don** tarzida tarjima qilganida ko'rinadi. Chunki, *don* turk tilida beldan past qismiga kiyiladigan uzun yoki kalta ich kiyimini bildiradi. lekin turk tilining izohli lug'atida *don* so'zining kiyim degan ma'nosi ham mavjud bo'lib, balki tarjimon shundan kelib chiqqan holda mazkur tarjimani ma'qul ko'rgandir. Ammo nima bo'lganda ham, o'zbek milliy kiyimi hisoblangan *to'n* so'zini *don* tarzida tarjima qilinishi asarda aks etgan milliylikka biroz putur yatkazgan. Bu o'rinda *to'n*

soʻziga izoh berib ketilganda qabul qiluvchi tomonga ham tushunarli boʻlgan boʻlar edi.

Tarixda turli xil laqab, taxallus kabilar yordamida shaxsning makoni, unvoni, mansabi, avlod-ajdodi, nasl-nasabi koʻrsatib kelingan. Kishilarni atashda uning urugʻ, qabila yoki nasl-nasabini ifoda etuvchi oʻsha shaxs uchun xos boʻlgan laqab nomlarini qoʻshib aytish ushbu shaxs toʻgʻrisidagi boy maʼlumot bilan tasavvurni kengaytirib, nom egasini oʻxshash ismli boshqa kishilardan ajratish uchun imkon yaratgan.

Shunday soʻzlardan biri asarda koʻp marta uchrovchi, asarning asosiy qahramonlaridan biri Mirzakarim nomi bilan doimo birga keluvchi **qutidor** soʻzidir.

Asliyat: “**Qutidor** oʻzicha nima toʻgʻrisidadir hisob yuritdi-da:

- *Voqiʼan siz meni eslay olmaysiz, - dedi. – Men Toshkandda qutidorlik qilgʻan vaqtimda siz taxminan besh-olti yoshliq bola edingiz...*”

Turk tiliga qilingan tarjimasi: “**Kutudar** kendi kendine bir şeylerin hesabını yaptıktan sonra:

- *Vakıa siz beni hatırlamazsınız, - dedi. – Taşkent’te kutudarlık yaotığım yıllarda tahminen sen beş altı yaşındaydın...*”

Ushbu parchaning tarjimasiga nazar tashlaydigan boʻlsak, *qutidor* soʻzi *kutudar* shaklida berilgan. Lekin aytishimiz mumkinki, asl nusxadagi *qutidor* bilan tarjimadagi *kutudar* soʻzlari asarda anglatib kelgan maʼnosiga koʻra bir-biridan tubdan farq qiladi. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida bu soʻzning quyidagi maʼnolari keltirib oʻtilgan: 1) quti-quti pul –dunyosi boʻlgan yirik boy, sarmoyador; 2) Qoʻqon xonligida: oliq-soliqlardan toʻplangan pullarni qabul qilib oluvchi, saqlovchi va xon xazinasiga topshiruvchi saroy amaldori. Asardagi *qutidor* soʻzi yuqorida keltirilgan maʼnolarning ikkinchisiga mos keladi, yaʼni oliq-soliqlardan toʻplangan pullarni qabul qilib oluvchi, saqlovchi va xon xazinasiga topshiruvchi saroy amaldori. Endi tarjimadagi *kutudar* soʻziga toʻxtaladigan boʻlsak, bu soʻz

quti egasi degan ma'noni bildiradi va bundan ko'rinadiki, tarjimada ma'no mutlaqo o'zgarib ketgan. Bordi-yu, tarjimon qutidor so'zini asardagi tarixiylikni saqlash maqsadida tarjima qilmasdan shundayligicha bergan bo'lsa, taglama asosida bu so'zning ma'nosini keltirib o'tganda maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yana bir o'rnak keltirib o'tamiz. **Asliyat:** *“Yig'inda Muhammadniyoz qushbegi, Qosim mingboshi, Qambar sharbatdor, Karimqul ponsadlardan tortib Toshkandning yetuklik ashrof va a'yonidan o'n beshlab odam bor edi...”* [1,275]

Turk tiliga qilingan tarjimasi: *“Toplantı salonunda Kuşbeyi Muhammed Niyaz, başkumandan Kasım, teşrifatçı Kamber ve yüzbaşı Kerimkul ile Taşkent eşrafından on beş kadar kişi vardı...”*

Ushbu parchada uchrovchi tarixiy-arxaik so'zlarning turk tiliga qilingan tarjimasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, *mingboshi- başkumandan, sharbatdor - teşrifatçı, ponsad - yüzbaşı* shaklida o'girilgan. Bu o'rindagi tarjimonning yutuqlari *mingboshi* so'zini *baskumandan, sharbatdor* so'zining esa *teşrifatçı* deb tarjima qilinganida ko'rinadi. Mingboshi so'zining O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagi ma'nolari keltirib o'tilgan: 1. Daha yoki qishloq oqsoqoli, hokimi. 2. Qo'shin boshlig'i. Asarda mingboshi so'zi ikkinchi, ya'ni qo'shin boshlig'i ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, tarjimon buni anglay olgan va bu so'zni tarjimada *baskumandan* tarzida bergan. Shuningdek, xon saroyidagi katta yig'inlarda may, sharob qo'yib beruvchi shaxsga nisbatan qo'llanuvchi *sharbatdor* so'zini *teşrifatçı* deb tarjima qilinishi ham tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishiga xizmat qilgan. Turk tilining izohli lug'atida *teşrifatçı* rasmiy kunlarda, tantana va bazmlarda mehmonlarni kutib oluvchi va ularga izzat - ikrom ko'rsatuvchi shaxs deb berilgan.

Lekin ushbu parcha tarjimasida ayrim kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Xonliklar davrida askar boshliqlariga berilgan unvonlardan biri va shu unvonga ega bo'lgan, odatda 500 kishidan iborat harbiy qismga boshchilik qilgan shaxsga nisbatan qo'llanuvchi ponsad so'zi turk tiliga *yüzbaşı* deb tarjima qilingan. Biz bilamizki, yuzboshi 100 kishidan iborat harbiy qismga boshchilik qilgan shaxsga nisbatan ishlatiladigan so'z bo'lib, u ponsaddan quyi pog'onadagi lavozim

hisoblanadi. Lekin tadqiqotlar natijasida turk tilida ponsad lavozimining o'rnini bosuvchi so'z yo'qligi ma'lum bo'ldi. Bizning fikrimizcha, tarjimon bu so'zni transliteratsiya usuli orqali berganida noto'g'ri tarjimaning oldi olinar edi.

XULOSA

Tarjima - ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, tadqiqotchilik faoliyatini egallashga qaratilgan mustaqil ishlarni bajarish orqali tarjima asar mohiyatini ochish, tahlil qilishdan iboratdir. ham, tarjimada ham badiiy tasvir vositalari va soʻz tanlash muammosi kuchli mahorat talab qiladi. Adib asar yaratayotganda qanday soʻz ishlatsam ekan, deb maxsus oʻylab oʻtirmaydi. Xayolda paydo boʻlgan fikrni oʻsha zahotiyloq aniqroq qilib qogʻozga tushiradi. Tarjimada esa vaziyat oʻzgacharoq. Tarjimon asarni boshqa tilda qayta yaratish uchun muallifning fikrini uzoq vaqt pishitadi, oʻziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab soʻz tanlaydi, bu soʻzlar maʼnosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni iloji boricha toʻlaroq ifodalashi tashvishida yonadi.

Qilingan qisqacha tahlillardan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- asarda tabiat manzarasi maʼlum gʻoyaga, asar mavzusiga boʻysungan holda, qahramonning ichki dunyosini ochib berish, davrning oʻziga xosliklarini aks ettirishga xizmat qiladi. Tabiat tasviri tarjimasida har bir badiiy detal maʼlum maʼnoga ega boʻlib, muayyan maqsadlar uchun qoʻllanilganligini unutmaslik lozim. Tabiat tasvirining asl matni va turk tiliga tarjimasini solishtirib tahlil etish tarjimon qator yutuqlarga erishganini taʼkidlashga asos beradi. Jumladan, A.Baturning soʻzma-soʻz tarjimadan koʻra, mazmunan muvofiq keluvchi muqobil soʻz va birikmalarni ishlatishga intilganligi eʼtiborga molikdir.
- asar qahramonlarining xarakterini ifodalashda portret tasviri muhim ahamiyatga ega. Portret tavsifi tarjimasida har qanday asar tarjimonning mazkur doiradagi bilimlari majmuini namoyon qiladi. Tarjimonning bu boradagi aniq va toʻgʻri tushunchalarga egaligini tarjimaning muqobilligini taʼminlovchi omillardan biri sifatida baholash mumkin. Qahramon portretini tasvirlashda muallifning personajga boʻlgan munosabatini kitobxonga yetkazib bera olish vazifasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tasvirdagi voqea-hodisaning taʼsirchanligini ifodalashda portretning ahamiyatini toʻgʻri anglagan holda tarjimon matnga ijodiy yondashish orqali qiyofani qayta tiklashga erishgan. Tarjimon obrazning umumiy

talqinidan kelib chiqqan holda, xususan, muallif g'oyasiga va tasviriga muvofiq ravishda tarjima qilishga harakat qilgan.

Ba'zi bir o'rinlarda qahramon portretiga milliy xos so'zlar vositasida berilgan ta'riflar tarjimada asl ma'nodan uzoqlashtirilgan holda tarjima qilingan.

- tarjimon Ahsan Batur tarjima jarayonida yozuvchi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida berilgan maqol va iboralarni turk tilidagi muqobillari bilan berishga harakat qilgan va buni ko'p hollarda muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirgan. O'zbek va turk tillari qardosh tillar bo'lganligi sababli har ikki til uchun ham umumiy bo'lgan maqol va iboralarning bo'lishi tabiiy hol. Shu sababli ushbu maqol va iboralarning ayni ekvivalenti yoki muqobili mavjud bo'lsa, ulardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ahsan Batur ham tarjima jarayonida ko'rinish, holat, vaziyatlarni tavsiflashda qo'llaniluvchi maqol va iboralarning turkcha ekvivalent yoki muqobillarini o'rinli qo'llay olgan.

- asliyat yaratilgan davr tarjima amalga oshirilgan paytdan, odatda, ma'lum darajada farq qiladi. Shuning uchun asliyat ruhini to'la-to'kis qayta yaratish mas'uliyati tarjimondan zarur til vositalarini to'g'ri tanlash yo'li bilan asliyat vujudga kelgan davr xususiyatini qayta yaratishni talab etadi. Shu bilan birga, tarjima amalga oshirilgan davr tili bir qadar kitobxonga tushunarli bo'lishi lozim. Chunki tarjimon asarni o'z davri kitobxoni mutoalasi uchun o'giradi.

Tarixiy mavzudagi asarlarda tarixiylik va milliylik bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bu tushunchalarning birini tarjimada noto'g'ri aks ettirilishi, o'z navbatida, ikkinchisining ham buzilishiga olib keladi. Asarda tarixiylik va milliylikni belgilovchi unsurlardan biri tarixiy-arxaik so'z hisoblanmish unvon, kasb-korlarga tegishli so'zlar va realiyalar (milliy xos so'zlar)dir. Tarjimon Ahsan Batur tarixiy-arxaik so'zlarni tarjimada berishda, asosan, transliteratsiya usulidan foydalangan. Zero, transliteratsiya tarixiy davr ko'rinishini ifodalashda sinalgan va ishonchli usuldir. Tarjimon yo'l qo'ygan asosiy kamchilik – kasb-korga tegishli so'zlarning ma'nolarini, aksariyat hollarda, taglama asosida keltirib o'tmagan. Asarda tarixiylikni ifodalovchi ba'zi davlat lavozimlari bilan bog'liq so'zlarning turk tiliga o'girilishida ayrim xatoliklar

koʻzga tashlanadi. Masalan, asliyatda keltirib oʻtilgan lavozim egasi bilan tarjima nusxada berilgan lavozim egasining oʻz vakolati doirasida bajargan vazifalari bir-biridan tubdan farq qiladi, yaʼni ular umuman boshqa-boshqa huquq va majburiyatlarga ega boʻlgan davlat amaldorlaridir. Umuman olganda mutarjim asardagi tarixiylikni saqlab qolishga harakat qilgan va bunga koʻp hollarda erishgan ham.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. “Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor”. – T.: O'zbekiston, 2009.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-jild. T.: O'zbekiston, 1996. Yozıcı Mine. Çeviribilme Giriş. – İstanbul yayınları, 2001.
4. Бар Л.Б. Анализ художественного произведения.-Т.: Ўқитувчи,1995.
5. Винокур Г.О. О языке художественной литературы.-М.,1991.
6. Адабиёт назарияси: 2 томлик.-Т.,1979.
7. Бадиий таржиманинг актуал масалалари. –Т.: Фан нашриёти, 1977.
8. Жўраев К. Таржима санъати. – Т.: Фан, 1982.
9. Исомиддинов З. Алдоқчи сўзлар билан баҳс. // Таржима санъати. 5-китоб. – Т., 1980.
10. Т. Malik. Tanlangan asarlar. 5-jid. T., 2007
11. Йўлдошев И., Т.Ўзтурк, Ю.Ўзтурк Ўзбек ва турк мақоллари ва иборалари. – Т.: Ўзбек – турк лицейлари, 1998.
12. Каримов М. Туркий тиллардан биридан иккинчисига таржима қилишнинг айрим масалалари» Бадиий таржима дўстлик қуроли. Т., - Ўқитувчи, 1990.
13. Комилов Н., Саломов Ф. Таржимон маҳорати. – Т.: Фан, 1979 .
14. Литературный энциклопедический словарь.-М.,1987.
15. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Т.: Фан нашриёти, 1966.
16. Саломов Ф. Адабий анъана ва бадиий таржима. – Т.: Фан нашриёти, 1980.
17. Саломов Ф., Т. Бобоев Т. Туркий тиллардан таржима қилиш проблемасига доир// Таржима санъати. Ғ.Ғулом номидани адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 1973.
18. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. Тошкент, Ўқитувчи нашриёти, 1983.
19. Yozıcı Mine. Çeviribilme Giriş. – İstanbul yayınları, 2001.
20. Komilov N. Bu qadimiy san'at. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998
21. И. Султон Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980.
22. Таржима санъати. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. .

23. Шукуров Н., Ҳотамов Н., Холматов Ш. Махмудов М. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи нашриёти, 1979.
24. Юсуф Б. Туркча-ўзбекча «алдоқчи сўзлар» луғати, – Т., Ворис нашриёти, 2009
25. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. Т. 2004.
26. Қуронов Д. Бадиият сирлари\Тафаккур.-1998.-№1
27. Husainova L. Национальное своеобразие и перевод; Atoref. dis. ...f.f.nom. – Т., 1987.
28. Namrayev X. Воссоздание национального колорита произведений узбекиской советской прозы во французских переводах: Atoref. dis. ...f.f.nom. – Т.,1988.
29. Javbo‘riyev M. Воссоздание национального характера и исторического колорита в художественном переводе: Atoref. dis. ...f.f.nom. – Т.,1991.
30. Otajonov N. “Boburnoma” jahon adabiy jarayonida: Filol. fan. dok. .. diss. avtoref . – Т., 1994.
31. Boltaboyev H. Turkiy tamaddun ibtidosi //Mumtoz so‘z qadri– Т.: Adolat, 2004.
32. Ibrohimova Sh. Odil Yoqubov romanlaridagi milliylikning turkcha tarjimalarda aks etishi. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. Т., - 2010
33. Isoqova Sh.I. Badiiy tarjimada milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi. Filol.fan.nom.diss. – Т., 2004.
34. Abdullayev Sh. D. Tarjima asarlarida frazeologizmlar semantikasi: Filol.fan.nom.diss... avtoref. – Т., 2006.
35. O‘rmonova N.M. Tarjimada tarixiy-arxaik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi: Filol.fan.nom.diss. – Т., 2008.
36. Xudoyberganova Z. Har so‘zning o‘z o‘rni bor // Yoshlik. -1999 . -№ 6.
37. Xudoyberganova Z. Tarjima mahorati // Yoshlik. – 2001. - № 5-6.
38. Hamidov X. Badiiy tarjimada so‘z tanlash muammosiga doir. Sharqshunoslik – Т.: ToshDSHI, 2013. № 16
39. Hamidov X. Badiiy asar tarjimasida tabiat tasvirining berilishi. Tarjima masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. –Т.: Muharrir, 2012.
40. Hamidov X. va Azzamova N.Q. Turkcha ijtimoiy-falsafiy va siyosiy atamalar tarjimasiga doir. Tarjima masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. –Т.: Muharrir, 2012
41. Hamidov X. O‘zbek va turk tillari orasida badiiy tarjimada “soxta ekvivalentlar” muammosi. Yosh tarjimonlar almanaxi. Samarqand: SamDCHTI - 2012.

42. Hamidov X. Badiiy tarjimda soʻz va ibora sinonimlarini tanlashda duch kelinadigan muammolar. YER YUZI, adabiy-badiiy, ijtimoiy-maʼrifiy jurnal, 2013.
43. Hamidov X. Oʻzbek va turk tillari badiiy tarjimasida “soxta ekvivalentlar” muammosi. Tarjima saboqlari: maqolalar toʻplami/ Sh. Sirojiddinovning umumiy tahriri ostida. – Samarqand: SamDCHTI. 2013.
44. Hamidov X. “Oʻtkan kunlar romani tarjimalarida maqollarning berilishi” Veb-sayt:www.fledu.uz.

Луғатлар

45. Türkçe Sözlük 1.cild Ankara, 1988.
46. Türkçe Sözlük 2.cild Ankara, 1988.
47. Türkçe Sözlük. Ankara, 2005.
48. Турецко-русский словарь. Москва, 1977.
49. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 1-том. Т, 2007.
50. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 2-том. Т, 2007.
51. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 3-том. Т, 2007.
52. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 4-том. Т, 2007.
53. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 5-том. Т, 2007.
54. Ўзбекча-туркча ва туркча-ўзбекча изоҳли луғат. Т. 1995.
55. Oʻzbek va Turk maqollari, iboralari: Özbek – Türk atasözleri ve deyimleri sözlüğü, Toshkent, 1998

Manbalar

- [1] –Qodiriy A., Oʻtkan kunlar, roman, Toshkent, 2013.
- [2] –Batur A., Ötgen Künler (Geçmiş günler), roman, İstanbul: Selenge yayınları, 2005.